



BUXORODA ADABIY ANJUMAN



*Illat izlaganga illatdur dunyo,
G'urbat izlaganga g'urbatdur dunyo.
Kim neni izlasa, topar begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdur dunyo.*

Sadriddin Salim Buxoriy

Badiiy adabiyot hamda uning yaratuvchilarini hamisha e'zozlab kelgan Buxoro sharif shu kunlarda ko'plab adabiy-badiiy tadbirlarga mezbonlik qilmoqda.

Buxoroning suyuqli farzandi Sadriddin Salim Buxoriyning ijodiy merosiga ehtirom sifatida tashkil etilgan adabiy anjuman Buxoro tabarruk tuprog'ida mangu qo'nim topgan olti pining muborak qabrlari, shuningdek, fayzli qabrlari Ko'hna Urganchda (bugungi Turkmaniston hududida) bo'lgan hazrati Ali ar-Romitaniyning maqom marqadlarini ziyorat qilishdan boshlandi.

Shundan so'ng, Buxoro davlat universiteti filologiya fakul'teti yig'ingohida, Sadriddin Salim Buxoriyning "Tanlangan asarlar" kitobi taqdimoti o'tkazildi.



Unda taniqli shoir-yozuvchilar, madaniyat va san'at xodimlari, Sadriddin Salim Buxoriyning oila a'zolari, shogirdlari, talabalar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari jam bo'ldi.

Kechani O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi rahbari Shodmon Sulaymon ochib, so'zni shoir, tarjimon va publitsist Mirzo Kenjabekka berdi. Ustoz ijodkor hayotlik chog'idayoq xalq ko'nglidan mustahkam joy olgan, hukumatimizning "Mehnat shuhrati", "Fidokorona xizmatlari uchun" kabi yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan shoir, olim, tarjimon Sadriddin Salim Buxoriy shaxsi, ijodi va uning insoniy fazilatlarini, milliy o'zlikni anglash bobida qo'shgan beqiyos xizmatlari to'g'risida iliq fikrlar bildirdi. So'ng taniqli yozuvchi Orzuqul Ergashev Sadriddin Salim Buxoriyning "Tanlangan asarlari"ni nashrga tayyorlash jarayoni va marhum adibning yuksak xislatlari haqida to'xtalib o'tdi.

Kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida, "Sharq" nashriyoti tomonidan 1000 adadda chop ettirilgan. Unda muallif qalamiga mansub she'rlar, tarjimalar, badiialar, publitsistik maqolalar joy olgan.

Tadbirda yangragan, shoirning "Tanlangan asarlari"idan joy olgan she'rlari, nasriy asarlaridan namunalar, ular asosida Buxoro davlat universitetining filologiya fakul'teti talabalar tomonidan tayyorlangan musiqiy guldasta ulug' shoir ijodiy merosiga o'ziga xos ehtirom namunasi bo'ldi.

Tasavvufshunos Salohiddin Gadoev shoir she'rlaridan o'qib, ularning sarmazmun sharhlarini taqdim etdi.

Tadbirda Sadriddin Salim Buxoriyning oila ahli ishtirok etdi va umr yo'ldoshi Mohira Salimovaning "Yorug'lik odami" kitobi mehmonlarga sovg'a qilindi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi

*** DIQQAT! DIQQAT! DIQQAT!**

Adabiyot va san'at ixlosmandlari uchun tanlov

"Ezgulik" Respublika elektron gazetasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi hamda "Nafosat" ijodkor qizlar klubi hamkorligida 1-oktyabr — Ustoz va murabbiylar kuniga bag'ishlab "Ustozim — faxrim" she'r, hikoya, badiia (adabiyotning barcha yo'nalish-larida ishtirok etishingiz mumkin, masalan, nazm yoki nasr) tanloviga start beramiz.

TANLOV SHARTLARI:

1. Ijodiy ishlaringizni ism-familiyangiz, to'liq ma'lumotlaringiz va yoshingizni yozib taqdim etasiz (tanlov 7 yoshdan 15 yoshgacha va 16 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar toifasida o'tkaziladi).

2. Gazetamizning kanaliga a'zo bo'lib, guruhiga 50 ta a'zo qo'shasiz hamda bizga skrenshotini yuborasiz.

<https://t.me/ezgulikgazeta>
<https://t.me/ezgulik85>

SIZ UCHUN AJOYIB IMKONIYAT HAM BOR

10–15 kunda saralangan, hakamlar tomonidan eng yaxshi deb baholangan ijodiy ishlar va rasmlar Yoshlar nafasi rukni ostida gazetamizning har sonida yoritiladi.

G'oliblar joriy yilning 1-oktyabr sanasida Ustoz va murabbiylarga bag'ishlangan tadbirda diplom hamda esdalik sovg'alari bilan tantanali ravishda taqdirlanadi.



MULK HUQUQI QACHONDAN VUJUDGA KELADI?

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mulk huquqining vujudga kelish asoslari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

mehnat faoliyati;
mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan, mol-mulknii yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish; davlat mol-mulknini xususiy lashtirish;
meros qilib olish;
egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat;
qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa asoslar.

Mol-mulk olish-sotish, ayriboshlash, hadya qilish shartnomalari, hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinishi mumkin.

Basharti, qonunlarda boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, mol-mulk yangi mulkdorga o'tganida, universal huquqiy vorislik tartibida sobiq mulkdorning huquq va burchlari ham unga o'tadi.

Shartnoma asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyo topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Agar mol-mulknii boshqa shaxsga berish haqidagi shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilishi yoki notarial tasdiqlanishi kerak bo'lsa, mol-mulknii oluvchida mulk huquqi shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan yoki tasdiqlangan paytdan boshlab, shartnomani ham notarial tasdiqlash, ham davlat ro'yxatidan o'tkazish zarur bo'lganida esa — ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulka nisbatan mulk huquqini oladi.

Malika MUHAMMEDOVA,
Vobkent tuman FHDYO bo'limi 1-toifali inspektori

IJTIMOY FAOL BO'LMAGAN AYOLLARNING FARZANDLARI DAVLAT HIMOYASIDA

Ma'lumki yurtimizda ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ihsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarni har tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli tarzda ko'maklashish tizimini joriy qilish maqsadida "Ayollar daftari" joriy etildi va ro'yxatga olingan xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur choralar ko'rilayotir.

«Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarning voyaga yetmagan farzandlariga bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi, muolaja xarajatlari qoplab beriladi.

Vazirlar Mahkamasining «Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2022 yil 31 martdagi 145-son) qaroriga asosan, «daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarning voyaga yetmagan (qaramog'ida I guruh nogironligi bo'lgan farzandlarining yoshidan qat'i nazar) farzandlariga davolash, dori vositalarini olib berish yoki murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun mablag' zarur bo'lgan holatlarda, tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi va sektor rahbari xulosalari bilan tibbiy muolaja xarajatlari to'lab beriladi.

Bunda dori-darmon olib berish uchun BHMning 20 baravarigacha hamda murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun BHMning 100 baravarigacha miqdordagi xarajatlar «Ayollar daftari» jamg'armasi hisobidan to'lab beriladi.

Farhod TO'RAYEV,
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash bugun davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylindi. Jumladan, oliy ta'limga o'qishga kirish, uy joy bilan ta'minlanish, ularning kasb-hunar o'rganishi, tadbirkorlik qilishi, bankdan imtiyozli kreditlar olishi, ishga qabul qilinishiga doir qator imtiyozlar mavjud.

AYOLLAR MEHNATIGA OID TAQIQLAR BEKOR QILINGAN

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida hukumatning tegishli qaroriga asosan ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlar bekor qilindi. Jumladan, tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxati tasdiqlandi. Bola parvarishlash ta'tilining kamida uch oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga Mehnat kodeksiga ko'ra qo'shimcha bir oy nafaqa to'lanadigan bola parvarishlash ta'tili beriladi.

Bundan tashqari, ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbiyalovchi otalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan

kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi.

Ayollarning pensiya yoshiga to'lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi.

Erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarining sudlarda ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.

Alisher JAMOLOV,
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

“Tadbirkor – elga madadkor”, deyishadi. Tadbirkoru ishbilarmoni boy elning qorni to'q, dasturxonni to'kin bo'ladi. Iqtisodning rivojlanishi ham bir jihatdan ushbu subyekt vakillarining hissasiga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqib, xulosa qilinadigan bo'lsa, shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu ishga qo'l urgan har bir vatandoshimiz bu yo'nalishda o'z huquq va manfaatlarini bilsalar, foydadan xoli bo'lmaydi. Xo'sh, ularning haq va huquqlari nimalarda namoyon bo'ladi?

TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINING HUQUQLARI

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunga asosan, tadbirkorlik faoliya-ti subyektlari quyidagilarga haqli:

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga;

yuridik shaxs bo'lgan boshqa tadbirkorlik subyektlarining muassislari (ishtirokchilari) bo'lishga;

mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulka egalik qilishga, undan foydalanish va uni tasarruf etishga;

o'z faoliyati yo'nalishlarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarni va o'z tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) iste'molchilarini mustaqil ravishda tanlashga;

tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olishga, bundan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari mustasno;

o'z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini), ishlab chiqarish

chiqindilarini bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilishga;

barcha ishlab chiqarish xarajatlarining o'rni qoplanib, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan daromadni (foydani) erkin tasarruf etishga;

kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda o'zga mol-mulknii shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan, binolarni, inshootlarni, uskunalarini va o'zga mol-mulknii olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirishga;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga haqli.

Behruz BAHRIDDINOV,
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi Call-centr mutaxassisi

MOL-MULK QACHON O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANI IXTIYORIGA O'TADI?

Ma'lumki, muayyan shaxs vafotidan so'ng unga tegishli mol-mulk va mulkiy huquqlarning vorislarga o'tishi meros sifatida tushuniladi. U ikki xil tartibda vujudga keladi: biri vasiyat, ikkinchisi esa qonun bo'yicha vorislik hisoblanadi. Vasiyat bo'yicha vorislik fuqaroning o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulknii yoki bu mol-mulkgaga nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etishni o'z xohish-istagi bilan boshqa bir shaxsga vasiyatnoma orqali rasmiylashtirilishi hisoblansa, qonun bo'yicha vorislik esa, vasiyatnoma bo'lmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda merosxo'rlarga teng ulushda bo'lib berilishini tushunish lozim.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: meros egasiz deb topilishi mumkinmi? Qonun bo'yicha ham, vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlar bo'lmasa yoki merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi hokimlik yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining arizasi bo'yicha meros ochilgan kundan 3 yil o'tganidan keyin sudning qarori asosida egasiz deb topiladi.

Meros mol-mulk, agar uni qo'riqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar uning qiymatidan ashib ketsa, ko'rsatilgan muddat o'tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tadi, bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda, davlat mulkiga o'tadi.

Shoxrux TO'XTAYEV,
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi direktori

DORI VOSITALARI NARXLARI USTIDAN NAZORAT KUCHAYTIRILDI

Vazirlar Mahkamasining 05.05.2023 yildagi "Iste'molchilar huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlarni ishlab chiqarish hamda aylanmasiga chek qo'yishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 188-son qarori qabul qilindi.

Prezidentning 04.04.2023 yildagi "Aholini sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-son qaroriga muvofiq Yagona axborot tizimi orqali nazarda tutilgan, dori vositalari va tibbiyot buyumlarini belgilangan narxdan yuqori ustama qo'ygan holda sotish to'g'risida murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish, shuningdek huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish tartibi tasdiqlangan.

2023 yil 1 iyundan boshlab "Soliq hamkor" axborot tizimi orqali murojaatlarni qabul qilish va ishlov berish hamda huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish amalga oshiriladi. Bunda axborot tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar nazorat va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun asos bo'ladi. Murojaatlar vakolatli organlar tomonidan 10 ish kunida majburiy tartibda ko'rib chiqiladi.

Murojaat bergan shaxs tasdig'ini topgan qonun buzilishi holatlari bo'yicha quyidagi miqdordalarda mukofot oladi: ma'muriy huquqbuzarlik uchun jarimaning 20 foizi va jinoyatlar uchun BHMning 5 baravarigacha miqdorda.

Laziz RASULOV,
Buxoro shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti

MEHNAT SHARTNOMASIGA KIRITILADIGAN SHARTLAR



Yangi Mehnat kodeksiga ko'ra mehnat shartnomasiga kiritilishi shart bo'lgan shartlar quyidagilardan iborat:

ish joyi — xodim shartnomada shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasiga ko'ra mehnat faoliyatini amalga oshiradigan ish beruvchi (tashkilot, uning alohida bo'linmasi yoki jismoniy shaxs), shuningdek xodim mehnat qilishi kerak bo'lgan joy;

mehnat vazifasi — muayyan kasb, mutaxassislik, malaka yoxud lavozim bo'yicha ish, shuningdek xodimga topshiriladigan ishning aniq turi;

ishning boshlanish sanasi — xodim mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni bajarishga kirishishi kerak bo'lgan kalendar sana;

mehnatga haq to'lash shartlari (shu jumladan xodimning tarif stavkasi yoki maoshi miqdori, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va rag'batlantiruvchi to'lovlar);

xodim bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilgan taqdirda mehnat shartnomasining muddati, shuningdek MKGa yoki boshqa qonunlarga muvofiq muddatli shartnomani tuzish uchun asoslar;

ish vaqti va dam olish vaqti rejimi, agar bu xodim uchun ushbu rejim mazkur ish beruvchida mehnat faoliyatini amalga oshiradigan xodimlar uchun nazarda tutilgan ish vaqtining va dam olish vaqtining umumiy rejimidan farq qiladigan bo'lsa;

ish joyidagi mehnat sharoitlarining xususiyatlari ko'rsatilgan holda normal sharoitlardan farq qiladigan sharoitlardagi ish uchun kafolatlar va kompensatsiyalar, agar xodim mazkur ishga qabul qilinayotgan bo'lsa;

zarur bo'lgan hollarda ishning xususiyatini belgilaydigan shartlar (ko'chma, sayyor, yo'ldagi, ishning boshqa xususiyati).

M. MIRMULLOYEV,

Buxoro shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

YAKKA TARTIBDAGI MEHNAT NIZOLARINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

Yakka tartibdagi mehnat nizolari quyidagilar tomonidan ko'rib chiqiladi:

* mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar tomonidan, bundan bevosita sudga ko'riladigan nizolar mustasno;

* sud tomonidan.

Xodim mehnat nizosini hal qilish uchun o'z tanloviga ko'ra mehnat nizolari bo'yicha komissiyaga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqli.

Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida yakka mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organ:

Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya emas;

odob-axloq komissiyalar ham emas.

Quyidagi yakka tartibdagi mehnat nizolari bevosita sudga ko'rib chiqiladi:

1) agar xodimning ish joyida mehnat nizolari bo'yicha komissiya tuzilmagan bo'lsa;

2) mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'iy nazar, ishga tiklash to'g'risidagi, mehnat shartnomasini bekor qilish sanasini va asoslari ta'rifini o'zgartirish haqidagi, majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ish bajarilgan vaqt uchun haq to'lash to'g'risidagi;

3) xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki kasb kasalligi tufayli yetkazilgan ziyonning o'rnini yoxud xodimning mol-mulkiga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini ish beruvchi tomonidan qoplash haqidagi;

4) ish beruvchi tomonidan xodimga yetkazilgan ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi;

5) ishga qabul qilish rad etilganligi haqidagi;

6) ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda oldindan hal etilgan masalalar yuzasidan;

7) xodimlar va ish beruvchi jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan;

8) o'zini mehnat qilish va mashg'ulotlar sohasida kamsitilishga uchragan deb hisoblayotgan shaxslarning;

9) xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash haqidagi.

Yakka tartibdagi mehnat nizolari yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, xodimning xohishiga ko'ra, bevosita sudlarda ham ko'rib chiqiladi.

Suleyman BAXRIYEV,

Buxoro shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

"Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2023 yil 11 apreldagi O'RQ-829-sonli qonun e'lon qilindi.

ER XOTINING YOKI XOTIN ERINING ISHLASHIGA TO'SQINLIK QILISHI JINOIY JAVOGBARLIKKA SABAB BO'LISHI MUMKIN

Hujjat 2023 yil 12 aprel kundan kuchga kirgan. Mazkur qonun bilan xotin-qizlar va bolalarning huquq va erkinligiga daxl qiluvchi xatti-harakatlar uchun javobgarlik keskin kuchaytirildi. Jumladan, Jinoyat kodeksiga qo'shimcha moddalar ham kiritildi.

Shulardan biri Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan "oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" deb nomlangan yangi 126-1-moddadir.

Ushbu 126-1-moddaning bir qismiga asosan xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan:

-mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to's-qinlik qilish;

-mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish;

-xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni

va qadr-qimmatini tahqirlash;

-ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish;

-shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlarini mavjud bo'lmasa, — bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda jarima yoki 160 soatdan 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Demak, Jinoyat kodeksiga kiritilgan yangi 126-1-moddada er xotining, xotin erining mehnat qilish huquqiga, jumladan, erkin kasb tanlash hamda ishlash huquqidan foydalanishiga to'sqinlik qilishi ham oilaviy yoki maishiy zo'ravonlik deb baholanishi aytilmoqda.

Z. CHORIYEV,

Kogon tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH — ASOSIY VAZIFA

Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik jamiyatni shakllantirishning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Mamlakat va fuqarolar manfaatlarining uyg'un holatda amalga oshuvining asosiy mexanizmi qonunlar oldida oddiy fuqarodan tortib eng yuqori lavozimni egallab turgan amaldorlarga barobarligi, ularning qonunlarga so'zsiz itoat qilishi hisoblanadi. Bu tamoyilni shakllantirish O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda.

Qonun ustuvorligiga xilof ish qilish va unga mensimay qarash, mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning oyoq osti qilinishi, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish qonunlarni obro'sizlantiradi, davlat va jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetkazadi, xalqning noroziligiga, haqqoniy e'tirozlariga sabab bo'ladi. Ayniqsa, fuqarolarning davlat tuzilmalari bilan munosabatlari jarayonida qonunlarga rioya etilishi yoki rioya etilmasligi fuqaro – davlat munosabatlarining butun bir tizimdagi ijtimoiy adolat qoidalarining holatini belgilab beradi.

Shu o'rinda mahalliy hokimiyat vakillari to'g'risida alohida o'xtalib o'tish zarur deb o'ylaymiz. Zero, islohotlarni amalga oshirishda, joylarda adolat qoidalarini o'rnatishda ularning o'rni katta bo'lishi zarur. Buning o'rniga mahalliy hokimiyat vakillari, hatto hokimlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlari, afsuski sodir etilmoqda.

Prezidentimiz ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizin-chi sessiyasida "Adolat - qonun ustuvorligida degan hayotiy tamoyil-ga qat'iy amal qilib yashash g'oyasi ham fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi" – deb ko'rsatgan edi. Lekin qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga "etalon" bo'lishlari lozim bo'ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. Shu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlardan ko'proq yetakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har qanday shaxs, guruhi, siyosiy kuchlar yoki ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demo-kratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

Namoz NURIDDINOV,

Buxoro shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

DALOLATNOMA YOZUVLARIGA O'ZGARTIRISH KIRITILSA...

Qonun fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoyalashni hamda davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda, fuqarolar hayotidagi muhim voqealar — tug'ilish, nikoh tuzish, o'lim va insonning muhim sub'ektiv huquqlari va majburiyatlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi va to'xtatishiga sabab bo'ladigan boshqa holatlarning vakolatli organlarda qayd etilishini belgilaydi.

Bugun biz fuqarolardan kelib tushayotgan savollar asosida fuqarolarning huquq va burchlari paydo bo'lishiga sabab bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlarga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish tartibi haqida ma'lumot beramiz.

Dalolatnoma yozuvlarini o'zgartirish, tuzatish, to'ldirish tartibi

Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirishlar, tuzatishlar va qo'shimchalar kiritish etarli asoslar mavjud bo'lganda va manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmaganda, ushbu

yo'zuvlar saqlanayotgan joydagi, agar ular O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan bo'lsa, FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. O'n olti yoshga to'lgan shaxslarning tegishli dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirishlar kiritish ularning arizasiga ko'ra, buning aksi bo'lgan hollarda ularning ota-onasi yoki qonuniy vakillarining arizasiga ko'ra amalga oshiriladi. Bunday jarayon konsul yoki notarius tomonidan tasdiqlangan ishonchnoma va ariza asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

Vafot etgan shaxsning dalolatnoma yozuvlariga ham o'zgartirishlar kiritiladimi?

Qonunchilikka ko'ra, vafot etgan shaxslarning ham tegishli dalolatnoma yozuvlariga tuzatish va qo'shimchalar kiritiladi. Faqat vafot etgan shaxslarning tug'ilganlik, nikoh tuzish, nikohdan ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlariga tuzatish va qo'shimchalar kiritish sud qaroriga asosan bajariladi. O'lim haqidagi dalolatnoma yozuviga tuzatishlar kiritish esa yaqin qarindosh(lar) yoki merosxo'r(lar)ning arizasiga ko'ra amalga oshiriladi.

A. AHMEDOV,

Peshko' tuman FHDYO bo'limi rahbari

O'GAY OTA-ONA VA BOLA O'RTASIDAGI ALIMENT MUNOSABATLARI

Oila kodeksining 127- moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, o'gay ota-ona yoki o'gay onaning tarbiyasida yoki taminotida bo'lgan voyaga yetmagan o'gay o'g'il va o'gay qizlarning ota-onasi bo'lmasa yoxud o'z ota-onasidan yetarli mablag ololmayotgan bo'lsa, ularga taminot berish majburiyati o'gay ota yoki o'gay ona zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bu aliment majburiyati qon-qarindoshlik munosabatiga asoslangan bo'lmay, o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan o'gay bolalarni tarbiyalaganlik yoki ta'minlaganlik yuridik faktiga asosan kelib chiqadi. O'gay bolalarga o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan tarbiya va ta'minot berganlik uchun yuridik fakti ularning bir oilada birga yashaganliklari bilan tastiqlanishi mumkin. Aliment majburiyatini belgilash uchun o'gay ota yoki o'gay ona bilan o'gay bolalarning uzoq vaqt birga yashagan bo'lishlari shart emas.

O'gay ota yoki o'gay ona bilan o'gay bolalar o'rtasidagi aliment majburiyati ta'minot berish uchun majbur bo'lgan boshqa qarindoshlar bo'lmagan holda vujudga keladi. Oila kodeksining 128-moddasiga binoan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj, o'gay ota yoki o'gay onaning ota onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag ololmasa ularga ta'minot berish majburiyati o'gay o'g'il va o'gay qizlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

O'gay bolalarning o'gay ota yoki o'gay onaga aliment berish majburiyati belgilangan bo'lib, u o'z mazmuniga ko'ra, amaldagi Oila kodeksining 127-moddasida belgilanganidek, bolalarning o'z ota onasiga ta'minot berish majburiyatlariga o'xshashdir.

O'gay bolalarda o'gay ota-onaga aliment to'lash majburiyatining kelib chiqishi uchun, birinchidan, o'gay ota yoki o'gay onaning ota onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasligi, ikkinchidan, ta'minot talab qiluvchi o'gay ota o'gay ona mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bo'lishi shart.

Aliment to'lovchi bolalarning o'zi voyaga yetgan mehnatga layoqatli va ta'minot berish imkoniyatiga ega bo'lishlari shart. Bu talablar ham aliment majburiyatini belgilashda zaruriy shart hisoblanadi.

Gulmira AKMURODOVA,

Peshko' tuman FHDYO bo'limi 1-toifali inspektori

MUTAXASSISLIGI BO'YICHA 5 YIL ISH STAJIGA EGA XOTIN-QIZLAR TAVSIYANOMA ASOSIDA O'QISHGA QABUL QILINADI

Qonunchilikka ko'ra, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar davlat OTMga alohida qabul parametrlari (jami 500 ta kvota) doirasida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi.

Bunda o'qishga qabul qilish Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomasi asosida amalga oshiriladi.

Tavsiyanoma olish uchun talabgor quyidagi mezonlarning barchasiga muvofiq kelishi kerak:

- * o'rta maxsus yoki professional ta'lim bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lishi;
- * tavsiyanoma olgunga qadar oliy ta'lim olmaganligi yoki ololmayotganligi;
- * o'rta maxsus yoki professional ta'lim mutaxassisligi bo'yicha 5 yillik mehnat stajiga ega bo'lishi.

Tavsiyanoma berilgan kundan boshlab 3 yil davomida faqat bir marta OTMga qabul qilinishi uchun amal qiladi.

Tavsiyanoma olish uchun talabgor doimiy yashash yoki vaqtincha ro'yxatda turgan joyidagi tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlariga 1 iyungacha ariza bilan murojaat qiladi. Ariza va hujjatlar 7 iyungacha ko'rib chiqiladi.

Shunga ko'ra, ishchi guruh xulosasi 10 iyungacha Qo'mitaga taqdim qilinadi.

Hujjatlar Qo'mita tomonidan 14 iyungacha ko'rib chiqilib, tavsiyanoma berish yoki uni rad etish to'g'risida buyruq chiqariladi.

Tavsiyanomaga ega xotin-qizlar uchun tanlovlar umumiy tartibda davlat OTMning bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari doirasida o'tkaziladi.

Kirish imtihonlari yakuniga ko'ra talabalikka tavsiya etilmagan, biroq to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo'lmagan ballni to'plagan tavsiyanomaga ega xotin-qizlar ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya etilgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etiladi.

J.KAMOLOV,

Kogon shahar adliya bo'limi DXM boshlig'i

QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tibbiyot mutaxassislari bugungi kunda 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug'ruq holatida qiynalib qolayotganini aytishmoqda. Ularr qizlarga 19-20 yoshlarida turmushga chiqishni, yigitlarga 20-22 yoshlarda uylanishni tavsiya qilishmoqda. Yoshlar rasmiy nikohdan o'tish uchun to'ydin bir oy oldin joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralari ariza topshiradi. Shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqarolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelin-kuyovlarni to'ydin oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Chunki yoshlar yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalinganini o'zi

asosiy qismi erta turmush qurish bilan bog'liq. Ota-onalar bilan tushuntirish ishlarini olib boryapmiz. Tibbiy ko'rikdan o'tishda ham muammolar mavjud.

Xorijda ishlab bir-ikki so'm topib kelgan yoshi katta erkaklarga 16-17 yoshli qizlarini qo'rqmay uzatayotgan ota-onalarning borligi kishini ajablantiradi. Yosh va dunyoqarashdagi tafovut ko'p holatda oilaning buzilishiga olib keladi.

Biz maktabdagi yuqori sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan ham shbatlar o'tkazib kelyapmiz. Bu o'z natijasini bermiqda. Bu borada O'quvchi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va erta turmush hamda erta tug'ruqning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ham tuzib chiqqanmiz. Shu chora-tadbir bo'yicha reja asosida qizlar

muammolari, jinoyatga moyilligi bo'lgan o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlab kelmoqdamiz.

Savol tug'iladi: olib borilayotgan keng ko'lamli tadbirlarga qaramay, nega bu boradagi muammolar yo'qolmayapti?

Maktablarda qizlarga reproduktiv salomatlikka doir ma'lumotlar yetarli darajada berilmayapti. O'g'il bolalar esa balog'at yoshida egallashi kerak bo'lgan ko'nikmalardan bebahra qolayapti. Demak xulosa shunday: aybni o'zimizdan qidiraylik.

Dilnoza ROZIQOVA,

**Buxoro viloyati Romitan tumani
27-umumta'lim maktabi amaliyotchi
psixologi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 13-apreldagi "2023 yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-sonli Farmonining 6-ilova 11-bandida temir-beton ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, bunda temir-beton ishlab chiqaruvchi tashkilotlarda zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash, shuningdek, temir-beton ishlab chiqaruvchi tashkilotlarda zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish uchun 10 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyasini ochish yuzasidan vazifalar belgilangan.

PREZIDENT FARMONLARI IJROSI NAZORATDA

Bugungi kunda ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimligi tomonidan temir-beton ishlab chiqaruvchi tashkilotlarda zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosi yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga huquqiy-uslubiy jihatdan ko'maklashish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida "Ijro.gov.uz" tizimida mas'ul ijrochilar belgilanmasdan kelinayotgan 48 ta topshiriqlar ijroga qaratildi, mahalliy davlat hokimiyati organlariga 78 marotaba huquqiy-uslubiy jihatdan ko'maklashildi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimliklar, davlat organlari va tashkilotlariga huquqiy-uslubiy jihatdan ko'maklashish maqsadida, "Zoom" platformasi orqali Ijro intizomini mustahkamlash mavzusida 10 marotaba o'quv seminarlar tashkil etildi.

S. BAQOYEV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarini ijrosini nazorat qilish sho'basini bosh maslahatchisi

EKSTERRITORIALLIK TAMOYILI

Endilikda davlat xizmatlari markazlari va FHDYO bo'limlari eksterritorial tamoyil asosida faoliyat yuritaypti.

Eksterritorial tamoyili – bu fuqarolar doimiy (vaqtincha) ro'yxatdan o'tgan joydan va yuridik shaxslar pochta manzilidan (joylashgan eridan) qat'iy nazar, istalgan hududdagi Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilish imkoniyatini beruvchi tizim hisoblanadi. Ushbu tajriba yaqindan FHDYO sohasida ham qo'llana boshlandi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 23-martdagi "Aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byukrokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimida bir qator yangiliklar amaliyoti joriy qilindi. Ya'ni, 2021-yil 1-iyundan boshlab, doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'iy nazar fuqarolar tug'ilish, nikoh, o'lim va nikohdan ajratishni

qayd etish bo'yicha istalgan FHDYO bo'limiga murojaat qilishlari mumkin. Bu fuqarolarimiz uchun yaratilgan eng katta qulaylikdir.

Bu nima degani? Deylik, fuqaro Xorazm viloyatida tug'ilgan, o'sha erda ulg'aygan va nikohi qayd etilgan. Lekin, vaqtincha ish joyi Buxoro viloyatida yoki mehnat safari bilan Toshkent shahrida bo'lib turibdi. Ana shu vaziyatda xorazmlik fuqaro avvalgiday o'zining yashab turgan joyidagi Xorazmga kelishi shart emas. O'ziga yaqin hududdagi FHDYO bo'limiga murojaat qilib, muammoni hal qilishi mumkin.

Ma'lumot o'rinda shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida dalolatnoma yozuvlari raqamlashtirilgan bo'lib, "FHDYO yagona elektron arxivi" axborot tizimi yaratilgan. Bu esa anyan eksterritorial tamoyil asosida ishlash imkonini beradi.

Dilshoda FAXRIDDINOVA,
**Buxoro tuman FHDYO bo'limi
1-toifali inspektori**

ham sezmay yurgan bo'lishi mumkin.

Kamqonlik, yurak-qon tomir, buyrak xastaliklarini davolamay turib homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p bora isbotlangan.


Yosh oilalar ajrimining

majlisi, ota-onalar yig'ilishi hamda tuman tibbiyot birlashmasi, tuman Xotin-qizlar qo'mitasi, tuman bosh imom xatibi bilan hamkorlikda uchrashuvlar, "Oila muqaddas dargoh", "Qizlarni erta turmushga berishning salbiy oqibatlarini", "Sog'lom turmush tarzi", "Reproduktiv salomatlik", "OITSGa qarshi kurash" mavzularida davra suhbatlari olib bormoqdamiz. Bundan tashqari, maktabda sinf rahbarlari bilan birgalikda doimo o'quvchi qizlar va ularni

MUSTAQIL YURTIM

Mustaqillik o'zi eng ulug'
ne'mat,
Uni qadrlamoq kerakdir,
albat.
U bizga yaratdi ming
imkoniyat,
Tiklandi yo'qolgan azim
qadriyat.

Uni ko'rmay ketdi
asl fidolar
Olamga tarqatib turfa
ziyolar,
Ularning ustidan bo'hton
riyolar
Tarqatganlar oldi
endi jazolar.



Bugun yurtimizni dunyo ko'rmoqda,
Sayyohlar biz tomon oqib kelmoqda.
Vatan bayrog'ini ko'tarib ko'kka
Bahodir, Ruslanlar parvoz etmoqda.

Bugun O'zbekiston dunyoga mashhur,
Asl mard o'g'lonlar vatanidir bu.
Ajdodlarimiz ham bizlarga o'rnak,
Yurakda hayajon, ufurar tuygu.

Pahlavon o'g'lonlar senga muborak,
O'zbekiston deya hayqirar dunyo.
Zafarlar, yutuqlar bo'lsin bardavom,
Qadding bukilmasin, Vatanim, illo.

Oltinoy ISKANDAROVA,
Urganch davlat Pedagogika instituti

O'SHAL CHAP KO'KSIMNING ICHKARISIDA

Ko'zim ko'lankasi loyqalanganda,
Nahot qorachiqlar nazdidan qolding.
Yoshimni sipqorib, qora lashkarlar,
Terilgan onda sen zumda yuqolding.
Qani dil o'tini yoqquvchi gulxan.
To'ldirgin may birla dilim jomini.
Kuyingda yo'rg'alab o'ynatdingku bas,
Ilonday to'lgongan mavjli qonimi.
O charxchi, charxlama, dunyosini qo'y,
Charxingdanda o'tkir uning zanglari.
Ko'ksim aro yangrar moziydagi kuy,
Lahzada jaranglar vaqtning bonglari!
Nazaring tashlagin boqgin bir bora,
Ne-ne sir bor dunyong tashqarisida.
Vajingni bas qilgin, Vatan va Haq bor,
O'shal chap ko'ksimning ichkarisida!!!

G.Qodirova (Guli Nur)

MUSHUGIMIZ

Singiljonim men bilan
Tortishmasa bo'lmaydi.
Beraverib savollar
Oz holimga qoymaydi.

"Terak bilan gilosning
Boyi nega teng emas?"
"Kuchuk yegan uyakni,
Mushuk nega hech yemas?"

Savollarga javobni
Beramanda ozimcha.
Tortishuvga batamom,
Qoyamanda tuguncha.

Mushugimiz yaramas,
Goshtin yeyib qo'yadi.
Shu sababdan kuchukga
Faqat suyak qoladi.

Soliha ANVAROVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani 88-maktab
o'quvchisi, "Qaqnus" to'garagi a'zosi



AMALIYOT NIMA UCHUN KERAK?

— Non ikkiga bo'linsa, ikki kishiga yarimtdan yetadi. Uch ming so'm uchga taqsimlansa, har bir kishiga ming so'mdan to'g'ri keladi. Bir gektar o'n kishiga bo'lib berilsa, har biri o'n sotix yerga ega bo'ladi. Moddiy narsalar taqsimlanganda – kamayadi, tugaydi. Lekin ma'naviy boylik, jumladan, ilm qancha ulashilsa ham kamaymaydi, aksincha ko'payadi. Shuning uchun sizlar ham ilm izlang, olgan ilmlaringizni amaliyotda ham qo'llang, - dedi amaliyot rahbarimiz Shahnoza Tursunova.

U bizni Urganch shahar hokimiyat binosiga amaliyot jarayonida ishtirok qilishimiz uchun olib keldi. Bu yerda Yoshlar ishlari agentligi bo'limi boshlig'i Bobur Olimov va agentlik xodimi Mehriniso Masharipova bizni kutib oldilar. Ular bilan suhbatlashib, o'rganishimiz kerak bo'lganlar ko'pligini, hech qachon chekinmay, doimo oldinga harakat qilishimiz, liderlik qobiliyatimizni namoyon etib, boshqalarni ham ergashtirishimiz kerakligini angladik.

Yoshlar ishlari agentligi bo'limi boshlig'i hayotimiz va faoliyatimizda asqotishi mumkin bo'lgan yo'l-yo'riqlar berdi.

-Berilgan imkoniyatlardan unumli foydalaning vaqtingizni foydasiz ishlarga sarfamang. Har bir qilayotgan ishingizga, gapirayotgan gapingizga e'tiborli bo'ling, har bir narsadan hayotingizda bo'ladigan yaxshi yomon hodisalardan ibrat olishga intiling. Amaliyot jarayonida siz hujjatlar bilan tanishish, ulardan foydalanish, pochta xizmati haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bu esa bugun raqamli texnologiyalar asrida juda muhim. Shu sababli amaliyot jarayoniga e'tiborli bo'ling. Hech qachon yangilanishdan, o'zgarishdan, yangi bilim olishdan charchamang, - dedi Bobur Olimov.

Amaliyotning dastlabki kunidan shaxsan o'zimdagi savol paydo bo'ldi. Men asli



kimman, vaqtimni qanday, kimlar bilan o'tkazayapman, ertaga kim bo'laman, bolalarim qanday muhitda ulg'ayadi? Amaliyot paytida jarayonlar bilan tanishar ekanmiz, ish hujjatlari bilan ishlashni, ayniqsa, ularning yozilish tartibi, xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish tartibi qanday ekanini bilib oldik.

Dastlab menda qo'rquv bor edi. Miyamni "Agar amaliyotga borsam? hech nima o'rgana olmayman. Vaqtim isrof bo'ladi" kabi negativ fikr-chalar egallab olgan edi. Noto'g'ri o'ylagan ekanman. Chunki talaba olgan bilimni amaliyot jarayonida sinovdan o'tkazmasa, uning olgan bilimidan zarracha bo'lsin foyda bo'lmas ekan. Olimlardan biri degan ekan: "Svilizatsiya tarixini oltita so'z bilan ifodalash mumkin: qancha ko'p bilsang shuncha ko'p qodirsan". Shunday ekan inson hech qachon bilimdan, izlanishdan, yangilik yaratishdan to'xtab qolmasligi kerak.

Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur", deganlarida ming chandon haq edilard.

Dinora OTAYEVA,
Urganch davlat Pedagogika instituti
Milliy g'oya huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

DADAJONIMNING TUG'ILGAN KUNIGA


Yiroqlashing qayg'udan,
Doim tabassum qiling.
Tabriklayman chin dildan,
Yuz yoshga kirib yuring.

Sizga yarashar kulgu,
Baxt-omad bo'lsin xamroh.
Eng yaxshi g'ozal tuyg'u
Sizdadir, bo'ldim guvoh.

Dada, tavallud kuniz
Biz uchun ham qadrlı.
Qancha intiqib kutdik
Unutilmas va zavqli.

Hech bo'lmasa buguncha
Mazza qilib dam oling.
Hattoki yuz yoshda ham
Biz bilan birga bo'ling.

E'zoza ESHONQULOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
24-maktab o'quvchisi, "Qaqnus"
to'garagi a'zosi



TOPISHMOQLAR

U bo'lar juda achchiq,
Yesang yig'laysan aniq.
Oshga solsang ham bo'lar
Tanang quvvatga to'lar.
(Qalampir)

Choyga solsang eriydi,
Ammo bilgin tuz emas.
Shirin maza beradi,
Yoqtirmaganlar bo'lmas.
(Shakar)

Shaklim misli hilol oy,
O'zim vitamanga boy.
Rangim limonday sariq,
Tanam judayam oriq.
(Banan)

Osiyo SAFAROVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tuman
25-maktab o'quvchisi, "Qaqnus"
to'garagi a'zosi





NEGA?

Buvijonim erkalab,
Meni "Quyuncham" deydi.
Va yana sochim silab,
Ko'p nasihat o'qiydi.

Yog'dak erib so'zlarga,
Savollarga tutaman.
Aytish qiyinmi shuncha,
Kunda javob kutaman.

Nega, nimaga bunday,
Men odam bolasi-ku.
O'zim jinniga solib
Jindak hazil qildim-ku.

Qo'rqitdim buvijonim,
Kuchuk ovozin qilib.
Bu qilg'im yoqmadi,
Qoldi-ku oyim bilib.

Qizim, nima bu qiliq,
Kuchuk kabi xurasan?
Qani tushuntir menga
Jahlim chiqsa bilasan!

"Xo'p-xo'p" deya vaqt o'tgach,
Mushukdek miyovladim.
Cho'ntakka konfet solib
Quyuncham kabi yo'qoldim.

Bundan ranjidi hamma,
Rosa qilishdi ta'na.
O'zlari-ku aybdor,
Ne kerak ranjish yana.

O'xshatishar quyonga,
Ongsiz bir mavjudotga.
Qiyoslashsa bo'lmasmi,
To'marisdek ajdodga!

Bahora NORBOYEVA,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani 54-maktab o'quvchisi,
"Qaqnus" to'garagi a'zosi



LOLAQIZG'ALDOQ

Uyimizning yonida,
Bir ajib gul ochildi.
Rangi qizil va sariq,
Bog'larimga sochildi.

Uning nomini bilsam,
Lolaqizg'aldoq ekan.
Rangi kabi hidi ham,
Hushbo'y tarovat ekan.

O'sha kundan boshlab men,
Unga mehrimni berdim.
Suv quyib parvarishlab,
Katta qilib o'stirdim.

Fotima AXATOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani 85-maktab o'quvchisi

TELBADEK QOG'OZGA DIL YORIB...

To'g'ri, mening kulgum soxta,
Ko'zlarimda porlamas uchqun.
Boshim baxtdan yetmas osmonga,
Mahkummanmi men shu dard
uchun?

Dod desam ovozim chiqmasa,
Yetmish ikki tomirdan uzilsam.
Har kecha Xudoga yolvorib
Boshqatdan tarqasam, tuzilsam.


Nogoh ko'zim yoshlanar bugun,
Ich-ichimdan chiqadi ovoz.
Tilim go'yo so'zlaydi g'amdan,
Dardkashim-chi yolg'iz bir
qog'oz.

Shoir ko'nglim ko'ngil emasmi,
Menda ham bir yurak bor axir.
Botar hatto zarra tikon ham,
Shamol tegsa titraydi dir-dir.



Tilim aylanmadi vido aytmogga,
Ich-ichimdan ezilib ketdim.
Telbadek qog'ozga dil yorib
Men to'kildim, to'kilib ketdim..

Go'zal SUNNATOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani, "Qaqnus" to'garagi
a'zosi



MAJNUNTOL

Menga nega mayus ko'rinding,
Ey shoxlari egik majnuntol.
Qad roslading anhor bo'yida,
Hamma senga qarab qolar lol.

Menga nega mayus ko'rinding,
Yerga qarab, tarab sochingni.
Keng bag'ringdan barcha

bahramand,
Tik ko'targin, egma boshingni.

Menga nega mayus ko'rinding,
Yashirmagin bo'yu bastingni.
Sevinasan bahor kelganda,
Tiniq suvda ko'rib aksingni.

Menga nega mayus ko'rinding,
Hilpiratib qaro sochingni.
Qarimagin, ming yil yashagin,
Ko'ray mag'rur egik boshingni.

Gulsevar ISMATOVA,
32-maktabning
8-sinf o'quvchisi

ONAM



Ko'zda mudom quvonch porlar,
Alam-gamni ichga yutar.
Ilinadi topganini,
Mendan baxt-u iqbol kutar!

Jannat uning poyidadir,
Guldek ochilar chehrasi.
O'ylamaydi o'zini hech,
U onalarning sarasi!

Feruz HAMIDOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani 10-maktab o'quvchisi


BUGUN USTOZIMNING SOCHLARI OPPOQ



Xotira daftaram qolga oldim men,
Maktab davrimga nazar soldim
men.
Sho'xliklarimizni esladim qancha,
Endi-chi katta bo'lib qolibmiz
ancha.

Bugun ustozimning sochlari
oppoq,
O'zlari mehribon, qalbi-chi
qaynoq.
Bilim va ma'rifat orgatar hamon,
Hayot maktabida chalib qongiroq.

Dilmurod O'ROQBOYEV,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani 10-maktab o'quvchisi



KITOB

Bilim berib doimo
Bilimdonlikka chorlar.
Uni o'qisak agar
Zabt etilgay alp tog'lar.

Yo'limizni yoritgay,
"O'qi" deb qilar xitob.
Bilimsizlikka qarshi
Turar hamisha kitob.

Kitob bizning xazina -
Boyligimiz, baxtimiz.
Ko'p uni varaqlasak
Oshar albat naqdimiz.

Kumushbibi SATTOROVA,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani 19-maktab o'quvchisi

KUZ



Sollanib keldi o'lkamizga kuz,
Assalom deya, sepini yoyib.
Dala-bog'da pishdi mevalar
g'arq,
Mevalarni yeymiz rosa to'yib.

Atrof sarg'ayib barglarga
cho'mdi,
Marvarid misol soy to'lib oqdi.
Ne'mat ulashgan Kuzga xo'p
rahmat,
Bu barchaga birdayin yoqdi.

Barchinoy HASANOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol
tumani 10-maktab o'quvchisi

KECHIRING, ONAJON...



Mehringiz ogushida ovunolmadim,
Holingiz nedir deb, sorayolmadim.
Farzand bolib bir bor yoqlay olmadim,
Kechiring onajon, kechiring ona.

Otkinchi shamollar aldadi meni,
Har bir nokas turib, siqtadi meni.
Shunchalar orningiz bilindi sizning,
Kechiring onajon, kechiring ona.

Ozgalarga vaqtim topoldim har on,
Sizni oylamadim, men noshud-nodon.
Endi izlayapman, chopib har tomon,
Ammo topolmadim sizni onajon!

Nahotki yoqotdim, nahot yoqotdim,
Mehringiz taftisiz sovuqda qotdim.
Dunyo tashvishlarin bir yonga otdim,
Sizdan sado kelmas nechun, onajon?!

Eshiksiz, tuynuksiz "uy"ga kirdingiz,
Buncha sovuq, qattiq joyga kirdingiz.
Izlab ham topolmas joyga ketdingiz,
Ming afsus, pushaymon-la qoldim,
onajon!

Qabringiz ustida boshimni egib,
Otiribman unsiz yoshimni tokib.
Afsus qaytib kelmaysiz endi hech
kulib,

Bugun farzandligim sezdim onajon!
Hayolda suratingiz chizdim, onajon!

Dildora QO'ZIBOYEVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
10-maktab o'quvchisi

TOPGAN - TOPALOQ

Rangi qizil, achchiqvoy
Ko'p yeganning holi voy.
(Qalampir)
* * *

Yig'lamayman
polvonman,
Ko'p dardlarga
darmonman.

To'g'rasang agar meni
Yoshlataman ko'zlarni.

(Piyoz)

* * *

Qirol mevalarning,
Ichida bor yuz bola.
Har bittasi go'yoki
Qirmiz yuzli gul lola.

(Anor)

* * *

Shakli koptokka o'xshash,
Yashil rangli to'ni bor.
Agarda kesib yesang
Ichi qizil lolazor.

(Tarvuz)

* * *

Miyaga o'xshash shakli,
Ichi to'la g'ij-g'ij yog'.
Yaxshilana xotirang,
Yeb yursang bo'larsan sog'.

(Yong'oq)

Ozoda ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
25-maktab o'quvchisi,
"Qaqnus" to'garagi a'zosi

OCHAMAN DIL DAFTARINI

Onajonim alla aytsa
Qushlar jimib, quloq solar.
Mehr bormi allasida?
Sehr bormi allasida?

Onajonim allasini
Eshitganman oqshomlari.
Tunlari bedor o'tardi,
Bo'lmas edi oromlari.

Onajonim alla aytsa,
Ochaman dil daftarini.
Go'zal she'rlar bitib uning
To'kaman ming xasratini.

Shabbona NURJOVOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tuman
34-maktab o'quvchisi

**YAKUN**

Yaqinlashar so'nggi manzillar,
Dilda qolmas umid va quvonch.
Ko'ngil yana yolg'izlik istar,
Lek kechalar tinch qoymas sog'inch.
Uzoqlashgim keladi, lekin
Munosabat uzilmaydi hech.
Qalb charchar sendan lek, ammo,
Boshqasiga o'rin qolmas hech.

Bahora SHODMONQULOVA,
42-maktab o'quvchisi,
"Qaqnus" to'garagi a'zosi

**QUYOSHJON**

Hoy quyosh, manziling qayerda sening?
Taftingni his etib makoning topsam.
Saharda sen bilan uyg'onib har kun,
Shomda qo'ling tutib sen ila botsam.

O'rgatgin menga ham olov bo'lishni,
Tun zulmatin yorgan nur bo'lsam deyman.
Olamni kunduzi yoritib har dam,
Sen kabi samoga yor bo'lsam deyman.

Quyoshjon, manziling qayerda sening?

Karimjon NORBOYEV,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
24-maktab o'quvchisi, "Qaqnus"
to'garagi a'zosi

KECHINMA

Ba'zan bulutlarni quchgim keladi,
Ko'zni quvontirar, yoqimtoy ular.
Samoda qush misol uchgim keladi,
Bu mayin bulutlar meni erkalar.

Qalamni olaman sekin va asta,
Chuqur va sokin o'yga tolaman.
Ilhom kelsa edi qani bir pasda,
O'ylarim qog'ozga yig'ib solaman.

Shul g'arib qalamim ba'zan menga yor,
Yana menga oshno oppoq qog'oz ham.
Yaxshiyam shular bor, bular bo'lmasa
Holim ne kechardi buni men bilmam.

Bu yozgan she'rlarim kimgadir yoqmas,
Ko'ngilga buyurib bo'larmi axir?
Ilhom ham bir injiq bola misoli,
Uning injiqligi ming yilga tatir.

Shoirlik da'voyim aslo yo'q mening,
Yurakning to'lg'og'i qiynaydi meni.
Holimga qo'ygandek ko'rinar, illo
Bu xasrat o'lguncha sinaydi meni.

Madinabonu BOBOBEKOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
88-maktab o'quvchisi, "Qaqnus"
to'garagi a'zosi

BULOQ

Sen shu qadar
otilib chiqing
Yer tubi senga
bo'ldimikan tor
Juda go'zal
qaynaysan biroq
E'tibor qilmas hech
kimsa zinhor.



Senga kimdir o'tsa ham-ki tosh
Bir bor kuchli qaynamaysan ham.
Darding yutib yashaysan mudom,
Shu xislatim meni qilgan rom.

Ichsin deya kimdir suvingdan
Pastga qarab irmoq yo'llaysan.
Chanqog'ini qondisa kimdir
Bir jilmayib javob yo'llaysan.

Ey, yer tubidan otilgan buloq,
Senga qoyil, tasanolar bor.
Hamma ichar suvingdan, biroq
Sen borliging sezmaydi hech kim.

Shahlo ABDUHAMIDOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
54-maktab o'quvchisi, "Qaqnus"
to'garagi a'zosi

OSHPAZLAR

Singlim hali kichkina -
Endi tolar besh yoshga.
Opa-singil ikkimiz
Harakat qildik oshga.

Qozonga yog'ni soldik,
Sabzi artdik bir pastda.
Biroz chalgigandim men,
Qochib qoldi u asta.

Xullas, taom ham tayyor,
Tortildi dasturxonaga.
Ta'mi biroq galati,
Boqdim singlim tomonga.

U esa bolib xursand,
Der: oshpaz bolib qoldim.
Shirin chiqishi uchun
Oshga ko'p shakar soldim.

Sarvara SINDARQULOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
24-maktab o'quvchisi,
"Qaqnus" to'garagi a'zosi

ORZULARIM BOG'IDA

Onajonim, ko'zimining
Oltin nuri o'zingiz.
Qalbmida zavq uyg'otgan
Sizning shirin so'zingiz.

Onajonim, hamisha
Meni mahkam quchasiz.
Orzularim bog'ida
Go'yo ko'kka uchasiz.

Sharofat IDIYEVA,
Jondor tuman 3-maktab
4-"b" sinf o'quvchisi

MUSOFIR AYOL TILIDAN

Necha yilki chorlaydi,
Ona yurtim sadosi.
Tutunlarga to'yirdi,
O'zga elning sabosi.
Toshlar botib qonatgan,
Bormikan dil davosi.
Bugun seni sog'indim,
Eng quvonchli onlarim.
O'zing asra Allohim,
Jonim ichra jonlarim.

To'lg'anadi tunlari,
Tug'ilmagan armonim.
Qor ostida yalang'och,
Kuymoqdadir tovonim.
Qaldirg'ochga intizor,
Huvillagan ayvonim.
Bitta-bitta to'kilar,
Kaftimdagi donlarim.
O'zing asra Allohim,
Jonim ichra jonlarim.

Daraxtdirman yaproqdek,
Ilhomlari to'kilgan.
Shoxlarimda sog'inchning,
Alamlari tugilgan.
Tomayotgan tomchilar,
Yuragimga tig'ilgan.
Kelarmikan men kutgan,
Nurli-nurli tonglarim.
O'zing asra Allohim,
Jonim ichra jonlarim.

Dardin so'zlar ey hayot,
Bir musofir ayoling.
Farzandlarim qiynama,
Beraverma savoling.
Kaftin ochib duoga,
Dilda sabr kuloling.
Kutmoqdadir tandirda,
Uzilmagan nonlarim.
O'zing asra Allohim,
Jonim ichra jonlarim.

* * *

Sochlaringga qo'ngan qor,
Nega erib ketmaydi?
Yoki mehr oftobim,
Bunga kuchi yetmaydi.

Yuzlaringda zahmatli,
Yo'llar aro hayrona.
Bosgan har bir izingni,
O'pmoqdaman giriyona.

Hatto oltmish yoshda ham,
Harakatdan qolmading.
Jonsiz ketmon toldi lek,
Ammo o'zing tol mading.

Ne uchun bir piyola,
Sabr suving yutmadim?
"Men ham bo'laman ona"
Deya qo'ling tutmadim.

Yo'limdagi kesak, tosh,
Savlati bor tog'dayin.
Ko'zlarimga ko'rinar,
Chumoli ham zog'dayin.

Shoir qizim deysanu,
Menda shoir o'ti yo'q.
Faqat ozor otganman,
Quvonchimning o'qi yo'q.

O'zing asra men uchun,
Qalbidagi yagonam.
Baxtinga omon bo'lg'in,
Bo'yintumorim — onam.

Ravzagul IBODULLAYEVA,
Sirdaryo viloyati

**YURTIMIZGA YARASHAR
BAHOR**

Bahor keldi birpasda, mana,
Yurtimizga quchog'in ochib.
Shodlantirib yurak asta,
Tevarakka nurlarin sochib.

Har kun bo'lar toy-u tomosha,
Raqlardan bu dillar yayrar.
Kelar baland qir-u tog' osha,
Qitmir qushlar shox-shodon sayrab.

Bir-biridan qolishmas to'rt fasl,
Tarovatli boshlanar nahor.
Dil quvnasa, bunga ne yetsin?
Yurtimizga yarashar bahor.

Nozima ILHOMOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
62-maktab 6-sinf o'quvchisi, "Majnuntol"
to'garagi a'zosi

**O'RNINGIZ BILINDI,
DADAJON...**

Oq tushmay sochlaringizga
Boqiylarni qildingiz makon.
Uyimizning o'chdi chirog'i,
O'ringiz bilindi, dadajon...

Sog'inch o'rtar yuragimizni,
Qismat oldi keragimizni,
Qon qildiku yuragimizni,
O'ringiz bilindi, dadajon...

Qanoti chiqmagan qush edik,
Go'dagu bir nochor, yosh edik,
Bosh edik, qo'l edik, qosh edik,
O'ringiz bilindi, dadajon...

Ulg'aydik, yo'limiz topdik biz,
Duoga qo'limiz ochdik biz,
Bizda ham bugun bor o'g'il-qiz,
O'ringiz bilindi, dadajon...

Sichqondek yurakni kemirar,
Sog'inchim yo'qlikka termular,
Diydor qachon yetar, kim bilar?
O'ringiz bilindi, dadajon...

Sitora MINGBOYEVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi
34-maktabning Ijodiy-madaniy masalalar
bo'yicha targ'ibotchisi

BO'RI BILAN QUYON

Qadim-qadim
zamonda,
Juda olis tomonda.
Bor ekan bir boz
bo'ri,
Yurolmas hech
ham to'g'ri.

Bo'ri otganda har on,
Qo'rqar bechora
quyon.
Quyonyurak nihoyat,
Qildi sherga shikoyat.

Sher bordi bo'ri tomon,
Po'pisa qildi yomon:
"Seni qilaman quvg'in,
Suvsiz cho'llarga surgun".

Shumshayib qoldi bo'ri,
Qurib qoldiku sho'ri.
Minnatdor bo'ldi quyon,
Sakradi u yon-bu yon.

Bunyod HASANOV,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
10-maktab o'quvchisi


**VATANIM**

Shodon o'g'il-qizingimiz,
Mehrga to'la maskan.
Yerdagi yulduzingimiz,
Qadrdon ona Vatan.

Jannatmakon bag'ringda,
Yashash oliy baxtimiz,
Senga sodiq bo'lmoqlik,
Yurakdagi ahdimiz.

Ezguliklar mujassam,
Issiqqina taftingda.
Doim farzandlaringni,
Asragaysan kaftingda.

Nargiza XUSANOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
1-bosqich talabasi

**ONAM**

Omad bilan opa-singilsiz,
Ulg'aytirib o'g'il-u qizni.
Iddaosiz, hech bir sababsiz,
Dunyolarcha sevaman sizni.

Boshingizga bog'langan harir,
Ro'molingiz sabrdan to'lsin.
Sukunatga cho'mib oqargan,
Sochlaringiz meniki bo'lsin.

Olis manzil boshlanganida,
Qadamimda shahdimsiz ona.
Baxtdan ko'zim yoshlanganida,
Mening oliy baxtimsiz ona.

BUVIJONIM

Buvijonim, buvijon,
Atirgul-u rayhonim.
Kulgulari bir jahon,
Duogo'y mehribonim.

Olamlar farishtasi,
Nurga cho'mgan yuzingiz.
Uyimiz sarishtasi,
Buvijonim o'zingiz.

Baxtimizga sog' bo'ling,
Boshingiz bo'lsin omon.
Ko'zlarida mehr bor,
Nuridiydam buvijon.

Farangizbonu UMARQULOVA,
Qorako'l tumani 38-umumiy o'rta ta'lim
maktabi 4-sinf o'quvchisi

Olamda bir podshohlik bor. U Chin deb ataladi. Qir adirlari-yu bog'-rog'larining chek-chegarasi yo'q. Ammo podshohlik sarhadlarini himoya qiladigan askarlar soni judayam kam. Bundan mamlakat podshohning hech ko'ngli to'lmasmish. Bir kuni podshoh kengash yig'ib vazirlariga maslahat solibdi:

— Nega shunday katta mamlakatimizni himoya qiladigan yigitlar kam? Bosh maslahatchi vaziri shunday javob qilibdi:

— Ey buyuklar buyugi. Siz xohlasangiz bu yurtni himoya qiladigan askarlar bo'ladi, hattoki, kuchayib qo'shni hududlarga egalik qilish imkoniyati mavjud. Podshoh hayron bo'lib, qani ayla vazirim. Vaziri shunday javob qildi:

— Butun mamlakat bo'ylab farmon bering hamma o'g'il bolalar saltanatga yig'ib keltirilsin. Kattayu kichik hattoki, endi tug'ilgan chaqaloqlar ham. Ularning hammasi uch hoshga to'lguncha enagalar qo'lida tarbiya topadi, uch yoshdan boshlab ustozlar qo'lida tarbiyalanadi, yetti yoshidan qilichbozlik va chavandozlik mashqlari o'rgatiladi. Xullas, faqat jangchi qilib tarbiyalanadi. Bu taklif podshohga manzur bo'ldi va farmon berdi. Farmoni oliyga binon barcha o'g'il bolalar podshohlikka olib kelindi. Onalar go'daklari diydorini sog'inib ko'zyoshlari yomg'irida cho'mildilar. Shu zaylda oylar o'tdi, oylar ketidan yillar o'tdi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar hatto ona hidini hidlamas ham edilar. Saroyda enagalar qo'lida bir muddat tarbiya olib, mohir sarkardalarga shogird tushardilar. Bolasini sog'ingan onalar podshoh huzuriga bir necha bor kelishdi. Biroq hech qanday foyda bo'lmadi. Ulg'ayib mohir qilichboz, yengilmas jangchi bo'lib

yetishgan yigitlar his tuyg'usiz va shavqatsiz edilar. Buyruqlarni so'zsiz bajarishar va janglarda doim g'olib kelishardi. Hattoki sarhadlarini yanada kengaytirib olishdi. Ular tinch turmas, janglardan charchamasdi. Kundan kunga qalbsiz toshyurak haykallarga o'xshab borishardi. Bu holat yaxshilikka olib kelmasligini tushungan podshoh yana sarosimaga tushdi. Donishmandlarni yig'ib, bu holatga hech kim javob berolmadi. Yig'ilgan mulozimlar xalq orasidan keksa donishmandlarni topib maslahat so'rashlari kerakligini aytishdi. Podshoh tez va qisqa muddat ichida bu holga yechim topish kerakligini uqtirdi. Xalq orasida ko'pni ko'rgan keksa onaxon buning sababini podshohning o'ziga aytaman dedi. Shoh huzuriga olib kelindi va ayol shunday javob aytdi:

— Ey buyuk podshoh sen askar kerak deganding, mana ular juda ko'pchilik bo'lib seni va yerlaringni himoya qilishyapti. Afsuski, qalbida sadoqat, shavqat tuyg'usi yo'q. Negaligini bilasanmi? Sen ularni shu ko'yga solding. Norasida go'dak chog'ida chirqiratib onasi bag'ridan yulib olding, ular ona mehriga qonmadi, ularda mehr yo'q. Ular ona sutiga to'ymagan, ularda his-tuyg'u yo'q. Eng asosiysi, ular ona allasini tinglamagan, ularda sadoqat va vafo yo'q. Alla tinglab ulg'aygan bolaning qalbi mehrga to'ladi, ko'zlarida quvonch, yuragida vafo bo'ladi. Ularda barcha insoniy fazilatlar mujassam



bo'ladi. Alla shunday kuyki, sehri butun olamni mehr bilan to'ldiradi. Allani hech kim yozmagan, uni ona yaratadi. Yurakdan otilib chiqqan, pokiza tuyg'uga limmo-lim to'lgan, dil so'zlari alla bo'ladi. Sen buni tushunmading ey ulug' podshoh, sen katta xato qilding, bu xatolarni endi to'xtatgin. Onalar bag'rida o'ssin go'daklar, suvga qongan niholdek unsin go'daklar, deb so'zlariga yakun yasadi ayol. Podshoh xato qilganini tushundi va ayolning so'zlaridan qattiq ta'sirlandi. Yangi farmon yozildi bolalar onasi bag'rida ulg'ayadigan bo'lishdi. Endi askarlikka oilasida voyaga yetgan, ota-ona tarbiyasini olgan vatanparvar sadoqatli o'g'lonlarni olishar edilar...

Dildora MASTONOVA,
Buxoro viloyati Romitan tumani
19-maktab 5-D sinf o'quvchisi

“MODA” BILAN HAMNAFAS YOXUD MODANI QORALASH QANCHALIK TO‘G‘RI?

XXI asr — nafaqat texnologiya, balki butun dunyo rivojlanayotgan davr. Demakki, har bir insonning kiyinish stilida ham juda katta o'zgarishlarni sezish qiyin emas va bu xalq tilida “moda” deb ataladi. Avval aniqlashtirib olsak, Moda o'zi nima? Moda bu dizaynerlar tomonidan yaratilgan uslublar orqali ommalashib ketgan, mashhurlardan tortib talabalargacha kiyilgan va xalq tili bilan aytganda “kiyilishi zarur bo'lgan” urfdagi liboslardir. Urfga kirgan duch kelgan kiyimni kiyish, obro'ni to'kishdan boshqasiga yaramaydi. Unutmaslik kerakki, pala-partish kiyingan kishi hech qayerda xush kayfiyat bilan kutib olinmaydi. Tashqi ko'rinish insonning qiziqishlarini, boshqalarga munosabatini va eng asosiysi madaniyatini ko'rsatib beradi. Misol uchun, libos fasl va qayerga kiyib borilishiga qarab tanlanadi. Ishxonaga bayram libosida, teatrga sport kiyimida, plyajga sipo ish kiyimida borib bo'lmaydi. Bularni bilish uchun insonda kiyinish madaniyati haqida yetarlicha tushuncha bo'lishi lozim.

Xo'sh, keling endi “modaga ergashish kerakmi yoki yo'qmi?” shu haqida gaplshsak. Bugungi kunda turli mamlakatlarda paydo bo'layotgan har qanday liboslar, kostyumlar tez orada dunyo miqyosida urfga aylanyapti. Buning sababi nimada? Buning ikkita sababi bor. Birinchisi, urfga aylanayotgan kostyumni targ'ib qiluvchi vositalarning hozirgi paytda kuchli taraqqiy etgani, ya'ni sun'iy yo'ldoshlar, ommaviy axborot vositalari, internet orqali jahonda paydo bo'layotgan kiyinish yangiliklari haqida axborotga ega bo'lish. Ikkinchisi, hozirgi paytda erkinlikka intilish hamda madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuv jarayoni bilan bog'liq. Hozirgi paytda liboslar sanoati bilan shug'ullanuvchi “Cristian Dior”, “Versache”, “Pol Makkarti”, “Chanel” kompaniyalarining mahsulotlari dunyo bozorida eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Uni urfga, odatda el nazariga tushgan kishilar, ya'ni kiyim namoyish qiladigan manekenlar, mashhur artistlar, qo'shiqchilar, sportchilar olib kiradilar. Boshqalar, ayniqsa, shunday kishilarning ixlosmandlari o'z-o'zidan ularga ergashadilar. Qarabsizki, o'sha kiyim rusumi ko'chaga chiqadi. Bu masalaning har ikkala tarafi ham bor. Kimlardir bu rivojlanishni qoralasa, kimlardir yon bosadi. Insonlarni biror narsani qilishga yoki qilmaslikka majburlashning iloji yo'q. Ayniqsa, bugungi kunda har kimning erkki o'z qo'lida, qanday kiyinadi? nima kiyadi? bularning hammasini individual hal qiladi. Ba'zi bu erkinlikni qoralovchi kimsalar, shu rivojlanish natijasida milliy ligimiz yo'qolib ketayotganini aytib nolishadi. To'g'ri, hozirgi kunda milliy adras va atlaslarimiz faqat bayramlarda kiyiladigan kiyimlar qatoridan joy olgan, lekin ularni ham har kunlik stilga kirgizish mumkin. O'zbekimizning milliy iftixori bo'lgan atlasga hamisha e'tibor katta. U bizda hech urfdan tushmaydi. Shu bilan birga yaqin-yaqingacha unutilgan adras, banoras, beqasam matolar yana



urfga kiriyapti. Bu quvonchli hol, albatta. Hozirda bu matoga qiziqish ortdi. Zamonaviylik hamda milliy uyg'unlik aks etgan andozalarda tikilgan liboslar qizlarimiz husniga yana ham ko'rkamlik baxsh etadi. Bu matolarni faqat to'y-u tantanalarda emas, ish sharoitlari uchun ham moslashtirish niyatida mutaxassislarimiz izlanmoqdalar. Ularning namunalari yoshlarimizning egnida paydo bo'lganligi hali bu borada yangi-yangi milliy libos rusumlari yaratilishiga umid uyg'otadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hatto mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik sayohatchilarning ham bizning bejirim matolarimizga qiziqishi ortib bormoqda. Shunday ekan, biz kirib kelayotgan urfdagi kiyimlarni ham qoralay olmaymiz. Har bir chinakam did sahibi modadan ham ko'ra o'ziga yarashgan uslubni afzal

ko'radi. Chunki modaning umri qisqa, qo'nim bilmas kapalakka o'xshaydi. Juda tez paydo bo'ladi va xuddi shunday tezlikda g'oyib bo'ladi.

Keling endi o'z stilimizni yaratish bo'yicha suhbatlashamiz. Har bir inson, ayol yoki erkak bo'lishidan qat'i nazar, kiyinish madaniyatini bilishi, duch kelgan kiyimni kiyavermasdan, o'zining uslubini yaratishi kerak. Bilasizmi nima? Beqaror moda bizni qanchalik ortda qoldirmasin, uni “tutib tura olish”imiz mumkin. Bunga esa kiyinishda o'z uslubini yaratgan holda erishish mumkin. Libos va uning ranglari bir biriga uyg'un, yuz rangiga mos bo'lishi lozim. Qomatdagi afzal jihatlarni namoyon etuvchi, shu bilan birga uning nuqsonlarini berkituvchi kiyimlarni tanlay olish juda muhim. Insonning o'ziga xos chizgisi bu — didi hisoblanadi. Haqiqiy moda liboslarning insonga va boshqa liboslarga qanchalik mos tushishi, ya'ni moda uyg'unlikdadir. Yaxshi tanlangan libos har kuni o'ziga xos yangi ko'rinishda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Kiyimni boshqa narsalar bilan uyg'unlashtirgan holda sotib olish lozim. Unga xos bezaklarni tanlashda ham xatoga yo'l qo'ymaslik muhim. Agar bezakka mos kiyim bo'lmasa, u holda o'sha bezakni sotib olishga shoshilmagan ma'qul. Avvalambor, bezaklarni kamaytirish lozim. Kiyim-boshlarda oddiylikni saqlashning ahamiyati katta. Barno ayol hech qachon libosining haddan ortiq bejirim bo'lishiga, zebziynatlarining ortiqcha mo'ligiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, ko'rkam qad-qomatni yanada chiroyli ko'rsatish uchun ranglar uyg'unligidan oqilona foydalanish lozim. Shu ma'noda bir necha maslahatlar berishni ma'qul topdik:

— ko'ndalang chiziqli matolar qomatni xushbichim ko'rsatsa, tik chiziqlar to'lacha ko'rsatadi;

— to'lacha va past bo'yli ayollarga yirik gulli matolar tavsiya qilinmaydi, bunday liboslar baland bo'yli va ozg'in ayollarga ko'proq yarashadi;


— to'q rangli liboslar qomatni ixcham ko'rsatsa, yorqin ranglar esa, aksincha, kishini to'lacha namoyish qiladi;

— bir necha qavatdan iborat bo'lgan yubkalar, parparakli ko'ylaklar ozg'inlikni yashiradi;

— bir xil rangli kiyimlar esa bo'yini uzun ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, insonning kiygan kiyimi mos tushsagina, o'ziga bo'lgan ishonchni sezilarli darajada orttiradi.

Sevinch TANGRIYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti
1-bosqich talabasi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatda turizmni, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish va shu kabi chora-tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda va Chilpiqqa ham katta e'tibor berildi. Hozirgi kunda bu joy turistik maskan va ziyoratgohga aylangan.

Chilpiq — qadimgi inshoot qoldig'i V – VII asrlarga tegishli, Nukus va Beruniy shaharlari ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari oralig'ida joylashgan. Chilpiq aylana shaklda bo'lib, atrofi qalin paxsa devor bilan o'ralgan, bir tomoni kirish yo'li sifatida ochiq qoldirilgan.


Chilpiqning devori 6-8 metr, ichki radiusi 12 metr. Mahalliy aholi Chilpiqning barpo etilishini afsonaviy devorlar bilan bog'laydi. Chilpiq hududidan islomgacha bo'lgan qadimgi dafn marosimlariga xos yodgorliklar topilgan. Olimlarning fikriga ko'ra, Chilpiq otashparastlar jasadlarini keltirib qo'yadigan maxsus daxma vazifasini o'tagan. Akademik Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi 1940-yilda qal'a hududidan ko'plab sopol ostadonlar siniqlari topishgan...

Bugungi kunda ham ushbu ziyorat maskaniga katta e'tibor qaratilib, cheteldan yuzlab, minglab turistlar ushbu ziyoratgohga tashrif buyurishmoqda.

Nazokat QUVVATBOYEVA,

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

KARTOSHKKA TUGUNAGINING MO'JIZALARI



Kartoshka tugunagi (solanum tuberosum) oziq-ovqat, tibbiyot

sohasida, balki xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ham juda qimmatli mahsulot beruvchi o'simlik hisoblanadi.

Hozirgi kunda global muammo oziq-ovqat yetishmovchiligi xavfi yuzaga kelayotgan

bugungi kunda aholini o'simlik mahsulotlari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, tugunak mevali o'simliklardan biri bo'lgan mahsulot insonlarni nafaqat oziq-ovqat bilan ta'minlashda balki, tibbiyotda turli xil kasalliklarni davolashda ham qo'llaniladi. Bitta o'rtacha mahsulot tarkibida 79% suv, 17% kraxmal va 2% oqsil shu bilan birga oz miqdorda kaliy (K), fosfor (P), vitaminlardan C, B1, B2, B6 va A provitamin bor. Bu mahsulot inson organizmi uchun antioksidant-fitonutrientlar va minerallarga boy o'simlik hisoblanadi.

C vitamini antioksidant bo'lib, organizmni erkin radikallardan xalos qiladi, immunitetni ko'taradi, turli kasalliklarga chidamliligini oshiradi.

B6 vitamini „Baxt garmonlari“ (dofamin, serotonin) ishlab chiqarishga hissa qo'shadi, stress, yomon kayfiyat bilan kurashishga yordam beradi, miya faoliyatini yaxshilaydi.

Kartoshka kraxmalli, tuberli ekdir. Bu guruch, bug'doy va makkajo'xoridan keyin dunyodagi to'rtinchi yirik oziq-ovqat mahsulotidir. Undan turli xil davlatlarda bir-biridan ajoyib taomlar tayyorlanadi. Masalan: Angliyada kartoshka pyuresi kolbasa, sous bilan to'ldirilgan bo'lib, uni Bangers va pyuresi deb ataladi. Shimoliy-sharqiy Xitoyda qovurilgan kartoshka, baqlajon va shirin qalampir — Di San Xian deb nomlanadi.

Xom kartoshka asosan, xalq tabobatida ko'p qo'llaniladi. Husnbuzar, kuyishdan keyingi jarohatlar uchun kompresslar sifatida qo'llaniladi.

Maydalangan kartoshka oshqozon-ichak yarasida yordam berib yallig'lanishni yengillashtiradi. Tarkibida kaliy ko'p bo'lganligi uchun organizmdan ortiqcha suvni haydaydi, bu esa moddalar almashinuvini yaxshilab beradi. Bundan tashqari kartoshka niqoblari mayda ajinlarni ko'tarish va yumshatish uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Sharbati esa ich qotishi, zaharlanish, ko'ngil aynishi, qusish kabi holatlarda davolashda keng qo'llaniladi. Bu mahsulot ham tabobatda, ham meditsinada, ham organizm uchun foydali va samarali hisoblanadi.

Mavluda SUNNATILLAYEVA,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Sanoat texnologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

ONAJONIM

Allohga iltijo aylayman har kun,
Bulutlar ichida o'sgan ohimsan.
Menga cheksiz mehr berganing uchun,
Yorug'likka asr bo'lgan mohimsan.

Ajinlar bosmasin nurli yuzingni,
Soching oq "g'amlar"ga to'lib qolmasin.
Bolajonim degan bitta so'zingni,
Hattoki "devlar" ham tortib olmasin.

Dunyoda onalar bo'lsinlar omon,
Onalar bor bo'lsa tinch turar zamon.
Farzandlar ulg'ayar mehrga qonib,
Yurakdan allasin kuylaydi yonib.

Dildora MASTONOVA,

Buxoro viloyati Romitan tumani 19-maktab 5-D sinf o'quvchisi

KITOBLARDA

Kitob o'qimagan insonning ham, millatning ham kelajagi yo'q!
(Shavkat Mirziyoyev)

Insonlarni haqqa eltar xitoblar
bor kitoblarda,
Yo'limizga nur taratar chiroqlar
bor kitoblarda,
Yosh avlodga yo'l ko'rsatib,
hayotimiz yorituvchi,
Ruhimizga ziyo sochar saboqlar
bor kitoblarda.



Bilim olish oliy ne'mat barcha o'g'il-qizlar uchun,
Ertamizga mezon bo'lgan hisoblar bor kitoblarda,
Ey siz akam, ukam, opam, singiljonim tezroq o'qing,
Kitobxonga hamroh bo'lgan o'rtoqlar bor kitoblarda!

Malika TOHIROVA,

Buxoro shahar 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi

* * *

Ko'zim ko'lankasi loyqalanganda,
Nahot qorachiqlar nazdidan qolding.
Yoshimni sipqorib, qora lashkarlar,
Terilgan chog'ida ko'zdan yo'qolding.

Qani dil o'tini yoqquvchi gulxan,
To'ldirgin may birla dilim jomini.
Xayolimdan ketma, endi seningla,
Botib borajakman ishqning komiga.



O charxchi charxlama dunyosini qo'y,
Charxingdanda o'tkir uning zanglari.
Ko'ksim aro yangrar moziydagi kuy,
Lahzada jaranglar vaqtning bonglari!

Nazaring tashlagin boqgin bir bora,
Ne-ne sirlar bordir hayot sasida.
Vajingni bas qilgin, Vatan va Haq bor,
O'shal chap ko'ksimning ichkarisida!!!!

Gulzira QODIROVA,

Buxoro viloyati Qorako'l tumani 16-maktab o'qituvchisi



***Siz nima deysiz?**

TABASSUMDA XULQ-ATVOR AKSI

Sarlavhani o'qib, kimdir ajablangan bo'lishi mumkin. Yo'g'e, deb yuborgandir kimdir. Ishonavering, shunday. Kishi tabassumi bilan xulq-atvorini va nimaga kulganligini ifodalab beradi. Bu bilan u menga ishonish mumkin, degandek tuyuladi va bu odamlar judayam saxiy hisoblanadi.



Ko'p insonlar bir-biri bilan kulishib suhbatlashishsa, bunday toifadagilar yonidagini o'ziga yaqin olib, sirlarini bo'lishgisi keladi. Ko'p tabassum qilib, yon atrofdagilar bilan kayfiyatini baham ko'rsa, u insonlarning dilida mehr-oqibat va g'am-tashvish hislari bisyor bo'ladi.

Kulishning har xil turlari bo'ladi. Masalan: qattiq kuladiganlar va sekin kuladiganlar. Qattiq kuladiganlar: ko'ngli singan tashvishi ko'p, ko'ngli yarim va nimadir yetishmagani uchun o'zini hafa qildirmay doimo qattiq tabassum qiladi. Chunki ular hamma dardlarini shu yo'l orqali yengillashtirishga urinadi. Sekin kuladiganlar... Bu insonlar majburlikdan, dunyo ko'ziga qorong'uday, kim bilandandir tortishib qolganday o'zini his qiladilar. Balki tarbiyalilar sekin kular. Hammaning o'z tabassumi bor.

Ba'zida tabassum xushmuomalalik belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zan esa inson o'zining kayfiyatini ko'tarish maqsadida tabassum qiladi.

Qanday vaziyat bo'lmasin tabassum insonlar tomonidan yaxshi kayfiyatda va iliq kutib olinadi. Doim tabassum qiling, uzoq yashaysiz.

Gulshanam BAHRAMOVA,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani 25-maktab
o'quvchisi, "Qaqnus" to'garagi a'zosi



MEHRIBONIM...

Yuragimga taskin berguvchi
Yaxshiyam bor shirin sozingiz.
Mehribonim, jonim, onajon,
Dardlarimga davo ozingiz.

Sizsiz ko'nglim topmaydi taskin,
Ovozingiz yoqar yurakka.
Dalda berib turasiz doim,
Mudom yetib yuring tilakka.

O'zingizni oylamaysizda,
Faqat bolam porlasin, deysiz.
Bizni oylab, biz uchun doim
Kuyunasiz, yonasiz sozsiz.

Noshukrlik qilib ba'zida
Yetmaymizda ona qadriga.
Azoblatib qoyamiz essiz,
Qo'l siltaymiz ona dardiga.

Komila SUYUNOVA

Oulagan devor ostiga berkinib, bolam deb, qizim deb yig'layotgan onalarning faryodiga, yaqin orada portlayotgan bomba tovushlariyu ustma-ust otilgan o'q ovozlariyu, vonayotgan uylarning qora tutunlariga to'lib ketgan osmonni vahima bilan kuzatyotgan to'qqiz yoshli bolakayning ko'rib turgan manzaradan xo'rliigi keldi.

Axir osmoni mussafo ediku? Hech kim dod-faryod chekib yig'lamas, ko'chalarda do'stlari bilan qo'rmasdan yugurib, shovqin solib o'ynar ediku?

Nega bunday bo'ldi?

Otasini ko'z oldida otib tashlashdi, ko'z oldida onasini...yolg'iz singlisi ham kecha uylariga tushgan snaryad zarbidan halok bo'ldi. O'zi esa ochlik va qo'rquv iskanjasida berkinib yotibdi.

Nega bunday bo'ldi?

Bunga kim sababchi?

Bolakay shu kabi savollarga javob qidirar ekan uning ko'zi beixtiyor vayronalar orasida yotgan varrakga tushib qoldi. Onasining gaplari yodiga tushdi: "Varrak - bu tinchlik ramzi, varraklar uchgan osmon mussafo va tinch bo'ladi!

-Hammasiga men aybdorman! Otamning, onamning, singlimning o'limiga men sababchiman! Axir bahorda oyog'im singani uchun varrak uchira olmagandim. Shuning uchun bizga tinchlik kelmagan!

Darhol yugurib chiqdida, varrakni qoldiqlar ostidan chiqarib oldi." Shikast yetmagan, uchira olaman, u uchsa tinchlik keladi, urush to'xtaydi!"

Keng ko'chaga chiqdi va ipni tortgan

BINAFSHA

GULINI IZLAYVERAMAN

Osmonida ko'rgim kelmas bulutni, Samoga quyoshni chorlayveraman. Oshiyoni tog'larda bo'lgan bulutning O'tkir nigohiday porlayveraman.

Quvonchim kam bo'lar bahor bo'lmasa, Binafsha isini qo'msayveraman. Negadir bu ko'nglim qishda to'lmasa Xayolni bahorga bog'layveraman.

Rahyon iforini sabza gulida Bahor quvonchini istayveraman. Netay, go'zallikka tashna bu qalbim Negadir bahor deb so'zlayveraman.

Nimadir yetmaydi kemtik qalbimga, Tashnadek "bahor" deb o'msayveraman. Qishning ayoziyu qorli kunida Binafsha gulini izlayveraman.

Gulchehra ISKANDAROVA,
27-maktab o'quvchisi

YURT UCHUN JON FIDO QILGANLAR

Bolam deb, yurtim deb yurganlar,
Janglarda mardona turganlar.


G'animni ayamay qirganlar,

Yurt uchun jon fido qilganlar.


Vatanin qadrini bilganlar,
Yovlarning dodini berganlar,
Ko'ksini o'qlarga tutganlar,
Yurt uchun jon fido qilganlar.

Ul zotlar qadrini bilaylik,
Ularga munosib bo'laylik.
Mardlikni ko'ngilga tugaylik,
Shu yurtga qalqonlik qilaylik.

Jamshid ALLAMURODOV,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
85-maktab o'quvchisi



VARRAK



yo'ldagi to'siqlardan sakrab o'tib yugurdi.

-Ucha qol! Tinchlik, uchaqol! Men seni qaytaraman, tinchlik! - deya baqirardi.

Maqsadiga yetishay deb qoldi. U yerdan ko'tarildi.

Uchayotganiga ishonch hosil qilish uchun ortiga qayrildi. Uchayabdi! Ochlik, suvsizlikdan qurib qolgan lablariga tabassum yugurdi.

Va birdan mina portladi!...

Jonsiz bolakay yerda yotarkan ko'zlari negadir varrakdan uzilmas, varrak ham uni tashlab ketgisi kelmaganday elektr simlariga o'ralib qolgan...

Jamshid DAVRON,
Jizzax viloyati G'allaorol tumani,
"Qaqnus" to'garagi a'zosi

MAKTAB

Qadrdomim
maktabim,
Bilimga boy
maskanim.
Quvnab yashnab
boramiz,
Doim ilm
olamiz.



Maktabimiz ozoda,

Beqiyosdir ziyoda.

O'qtuvchilar bilimdon,

O'rgatar ulm-u urfon.

Dinara ESHQUVATOVA,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi
35-maktabning 6-sinf o'quvchisi

BOBOJONIM

Bobojonim bor boling,
Baxtimizga sog boling.
Bizni baxtimiz sorab,
Duolar qilib yuring.
Hoji bobo bolingiz,
Yuz yoshlarga kiringiz.
Olim-u olimalar,
Bobojoni boling, siz.



Husnora ABDURAHMONOVA,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi
35-maktabning 6-sinf o'quvchisi



"Ezgulik" muxbiri Go'zal Sunnatova tayyorladi

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA BOLA HUQUQLARI

O‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan shaxs — bola hisoblanadi. Bugun yurtimiz aholisining qariyb 12,1 mln nafari bolalardan iborat bo‘lib, ular mamlakatimiz aholisining 35 foizini tashkil etmoqda. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 3-moddasida “bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda, ular davlat yoki xususiy ijtimoiy himoya muassasalari, sudlar, ma‘muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan amalga oshirilishidan qat‘i nazar, bolaning eng yaxshi manfaatlarini birinchi navbatda e‘tiborga olinadi”, deb belgilangan. Bolalarning manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha Konvensiyaga oid normalar yangilangan Konstitutsiyada ham o‘z ifodasini topgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mazkur konstitutsiyaviy normaga muvofiq endilikda davlat:

— bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, himoya qilish uchun qonunchilik va amaliyotni takomillashtiradi, shu orqali nafaqat bolalar bilan bog‘liq sud jarayonlari, balki ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda bolalarning eng yaxshi manfaatlarini xisobga olinishini ta‘minlaydi;

— bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun har bir shahar, tuman, mahalla va maktabda sport maydonchasi yoki sport zalini tashkil etish, turli sport tugaraklarining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi choralarni ko‘radi;

— bolalarning aqliy rivojlanishi uchun maktab va maktabgacha ta‘lim sifatini yaxshilash, bolalarga mo‘ljallangan adabiyot, o‘quv va multimedia, Internet dasturlarini tayyorlash, kutubxonalarining kitob fondini boyitish, ilmiy- texnik to‘garaklarni ko‘paytirish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshiradi;

— bolalarning madaniy rivojlanishi uchun ularga mo‘ljallangan san‘at to‘garaklarini faollashtirish, teatr va konsert repertuarlarini ko‘paytirish, muzey va madaniy ko‘rgazmalarga maktab o‘quvchilari ko‘prok kirishi uchun sharoitlarni yaratadi.

Mazkur normani asosiy qonunga kiritilishi

yurtimiz kelajagi bo‘lgan bolalarni sog‘lom, zukko, zehnlilik bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini to‘liq ruyobga chikarishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sog‘ligida muammosi bo‘lgan bolalarni ta‘lim va tarbiya olishi uchun bog‘cha, maktab, oliy ta‘lim tashkilotlarida maxsus sharoitlarni yaratish ijtimoiy davlatning vazifalaridan biridir.

Binobarin, Bosh Qomusda “ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanadi”, degan muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi norma mustahkamlandi.

2020 - 2025 yillarda xalk ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish Konsepsiyasiga muvofiq, inklyuziv ta‘lim ixtisoslashtirilgan maktablar va birinchi marotaba umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkil etiladi.

Unga ko‘ra, sog‘ligida nuqsoni bo‘lgan bolalarni faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qishining yo‘lga qo‘yilishi inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir.

Laylo HAKIMOVA,
Romitan tumanidagi 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

OILAVIY ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYALASH TIZIMI TAKOMILLASHMOQDA

Jahon miqyosidagi statistika va umumiy tendensiyalarga nazar tashlasangiz, oilaviy zo‘ravonlikdan asosan ayollar va bolalar jabr ko‘rayotgani ma‘lum bo‘ladi. Oilaviy zo‘ravonlikning eng og‘ir oqibatlaridan yana biri farzandlar ruhiy holati va axloqiga yetkaziladigan jiddiy zarardir. Ko‘pincha bolalarning o‘zi ham oilaviy zo‘ravonlik qurboni bo‘ladi. Kichik yoshdagi bolalarda oilaviy-maishiy zo‘ravonlik oqibatlari turli kasalliklar shaklida namoyon bo‘lsa, o‘smir yoshdagilar orasida u hol suitsid holatlariga olib kelishi ham kuzatiladi.

Bizning mentalitetda oila oliy qadriyat sanaladi. Farzandlar kattalarga hurmat, an‘analarga sodiqlik ruhida tarbiyalanadi. Biroq, shu o‘rinda bola huquqi va shaxs erki masalalari e‘tibordan chetda qoladi. Vaholanki, O‘zbekiston hududida tug‘ilgan har bir bola hayotining ilk daqiqalaridanoq qonun himoyasidadir.

Shunga ko‘ra, xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga, umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga o‘z huquqlarini amalga oshirishida to‘sqinlik qilish, shaxsiy narsalariga qasddan shikast yetkazish, sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish kabi holatlar kuzatilsa, bazaviy hisoblash jarima yoki 10 sutkagacha ma‘muriy qamoq jazosi qo‘llanadi. Ularni do‘pposlash esa 15 sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoq jazolari, mazkur harakatlar ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin takror sodir etilsa, jinoiy javobgarlik belgilandi.



Ilgari mazkur harakatlar uchun umumiy moddalarga (badanga shikast yetkazish) asosan javobgarlikka tortilgan. Shilqimlik qilish uchun javobgarlik belgilanmagan bo‘lsa, endilikda ushbu qilmishlar uchun ma‘muriy javobgarlik belgilandi

Ma‘lumki, aliment qarzdorligi jiddiy muammoga aylangan. Aliment to‘lamay yurgan shaxslarni 15 sutkaga qamash yoki jarimaga tortish mumkin. Biroq aksariyat hollarda bundan aliment oluvchiga umuman naf yo‘q. Aksincha, qamog‘ga olingan aliment to‘lovchi 15 sutka ishlab pul topish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, jarima jazosi esa uning ahvolini yanada og‘irlashtiradi. Endi aliment to‘lamay yurgan shaxs sudlar tomonidan 8 soatdan 240 soatgacha muddatga ular majburiy jamoat ishlariga ham jalb etiladi va ish haqining teng yarmi alimentga ushlab qolinadi.

Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganligi uchun ma‘muriy javobgarlik belgilandi. Jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslar ta‘lim-tarbiya tashkilotlarida ishlashi taqiqlandi.

Qonunlarga kiritilgan o‘zgartirishlar xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo‘ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Zarnigor IMOMOVA,
Adliya boshqarmasi mas‘ul xodimi

Mehnat insonning hayotida muhim o‘rin tutibgina qolmay, turmushni mehnatsiz, yaratuvchiliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mehnat tarbiyasi tarbiyaning mag‘zini, mazmunini tashkil etadi. Barcha xalqlarning eng ilg‘or an‘analari mehnat jarayonida paydo bo‘lib takomillashadi. Mehnat an‘analarining tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o‘ynaydi.

KASBGA TAYYORLOV — KELAJAKKA YO‘L

Yer yuzida kasb-hunar ko‘p. Bu ikki so‘z mazmun va mohiyat jihatdan bir-birini to‘ldirib turadi. Insonlar hayot kechirishlari davomida o‘z ehtiyojlari uchun nimadir yaratadilar ishlab chiqaradilar. Demak ular o‘z ehtiyojlari uchun mehnat qiladilar. Masalan ular dehqonchilik va bog‘bonchilik bilan shug‘ullanib noz-ne‘matlar yetishtiradilar va hokazo.

Dunyoda 40-mingdan ortiq kasb-hunar bor ekan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarsi o‘laroq, oltmishdan ortiq kasblar rivojiga ahamiyat qaratilmoqda va ular kollej hamda texnikumlar faoliyatiga tadbir etilmoqda.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarda o‘quvchilarimizni kasb tanlashlariga oid so‘rovnomalarni utkazilmoqda. Ularning ota-onalarini davra suhbatlariga jalb etib kelmoqdamiz. Bu tadbirlardan o‘quvchilarimizni ona – Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, o‘quvchilarning bilim tafakkurini, kitobxonlik malakasini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil kasb tanlashga qiziqirish hamda ehtiyojini shakllantirish olgan bilimlarini amaliyotga tadbir etish kabi masadlar ko‘zlangan. O‘quvchilarning o‘z kasbing ustasi bo‘lishi uchun estetik tarbiyani oshirish va kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini amaliyotda ko‘proq tadbir etish haqida suhbatlar olib borilmoqda.

Biz yoshlar tarbiyasida “Texnologiya” faniga hayotiy ehtiyoj sifatida qarashimiz bilan o‘quvchini betartiblik va dangasalik kasalliklariga chalinishini oldini olibgina qolmay, uning kelajakdagi ma‘lum bir kasb egasi bo‘lishiga zamin yaratamiz. Aks holda o‘z kasb kelayotgan yosh avlod o‘z holiga tashlab qo‘yilganda mehnatga bo‘lgan tabiiy intilishi so‘nadi va o‘z mehnatidan qanoat hosil qilishni esa o‘yin-kulgidan qidira boshlaydi. O‘yin-kulgida rivojlangan ehtiyoj mehnatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni batamom siqib chiqarishi moddiy va ma‘naviy qashshoqlikka olib keladi.

D.ROZIQOVA,
Romitan tumanidagi 27-maktabning psixologi

TABIAT UYG‘ONAR QUSHLAR BONGIDAN

Bahor men kordim qalbing torini,
Kordim daraxtlarning pinhon sozini.
Kuylaysan har kuni ishqning rozini,
Qalbimga solgin sen gullar sozini.

Kutdim necha oylar bahor faslini,
Misralar yozardim senga bagishlab.
Kelsangu, qalbimni charogon etsang,
Gullar olamiga kirsang opichlab.

Tongda eshitilar kaptar ovozi,
Yuragim hayqirar bahor tongidan.
Derazamdan quyosh chiqar jilmayib,
Tabiat uyg‘onar qushlar bongidan.

Daraxt guli hidi urar dimoqqa,
Feruz osmoning dilim quvnatar.
Mayda gulli libos yarashar chunon,
Bahor tarovati qalbm sayratar.

Sen kelsang, yosharib boradi olam,
To‘xtagan yurakka go‘yo jon kirar.
Bo‘shatma o‘rningni aslo qishlarga,
Qadaming zaminga iqbol keltirar.

Maftuna SULAYMONOVA

JAMIYAT UCHUN BOLANING BEGONASI YO‘Q

Xalqaro hamjamiyat hamda har bir mamlakatda bola manfaatlar va ularning huquqlari himoyasiga qaratilgan qator qonunlar va qonunosti hujjatlar qabul qilingan. Shunga qaramay, kelajak ustunlari bo‘lgan go‘daklarning huquqlari poymol etilayotganligi, o‘zligidan foydalanib, ularni kamsitish holatlari uchrayotganligi achinarli holdir. Zero, har bir dunyoga keladigan o‘g‘il-qiz dunyoviy qonunlarga ko‘ra hur tug‘iladi va ularning insoniy haq-huquqlariga daxl qilmoqlikka hech kimning haqqi yo‘q. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida: “Biz uchun jamiyatda begona bola yo‘q va bo‘lmasligi kerak. Hammasi o‘zimizning, O‘zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko‘rsatsak, ishga, ilmga, kasbu hunarga, ezgu fazilatlariga o‘rgatsak, ularning yo‘lini ochib bersak, ertaga foydasi o‘zimizga, jamiyatimizga tegadi”, degan edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 44-boddasiga ko‘ra bolalar mehnatining bolaning sog‘ligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

Barcha bolalarning teng huquqliligini ta‘minlash maqsadida Konstitutsiyaning 78-moddasida farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat‘i nazar, qonun oldida tengligi, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi belgilab qo‘yilgan.

2021 yil 12 fevralda “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual

kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1281-modda bilan to‘ldirildi.

Unga ko‘ra, o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxsning o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan holda unga moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish orqali u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish uchun javobgarlik belgilandi. Jinoyat kodeksi 1482-moddasining ikkinchi qismiga o‘zgartirish kiritilib, voyaga yetmagan shaxsni mehnatga biron-bir shaklda ma‘muriy tarzda majburlaganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilandi.

Xuddi shu kabi, Jinoyat kodeksining 2161-moddasi ikkinchi qism bilan to‘ldirildi. Unga ko‘ra voyaga yetmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, bolalarni huquqbuzarliklar qurboni bo‘lishdan asrash maqsadida 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-sonli Qonunga ko‘ra Jinoyat kodeksining 1281-moddasi(o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish) hamda 129-moddasida (o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirildi.

Bugungi kunda bola huquqlariga oid qonunchilikdagi o‘zgarishlarni aholi yetkazish maqsadida adliya idoralari vakillari tomonidan targ‘ibot-tashviqot tadbirlari olib borilmoqda.

Sh.BAHRONOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi
boshlig‘i birinchi o‘rinbosari, yuridik fanlar
bo‘yicha falsafa doktori

BURGAGACHA ACHCHIQ QILIB KO‘RPA KUYDIRGANLAR...

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar oilada shakllangan.



Yurtboshimiz oila haqida shunday ta‘rif berganlar: “Oila hayotning abadiylik, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday bo‘lib yetishishiga bevosita ta‘sir qiladigan tarbiya o‘chog‘idir”.

O‘zbekistonda oilaning mustahkamligiga, yosh avlodni jismoniy va ruhiy sog‘lom qilib tarbiyalanishiga g‘oyat katta ahamiyat berilmoqda. So‘nggi yillarda qonun, farmon va qarorlarni qabul qilish yo‘li bilan amalga oshirila-yotgan tadbirlar, oilalarga, ko‘p bolali ayollarga, o‘quvchi va talabalarga davlat tomonidan berilayotgan moddiy va ma‘naviy yordamlar sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun zamin tayyorlamoqda.

Biroq, bugungi kunda to‘qlikka sho‘xlik qilib nikoxdan ajrashayotganlar soni yildan yilga oshib borayotganligi g‘oyat achinarlidir. Har bir buzilgan oila orqasida ota yoki ona mehridan mahrum bo‘lgan bolalar taqdiri yotishini nafaqat yoshlar, balki ularning yaqinlari: ota-ona-yu bobo-buvilari anglab yetmayotgandek.

Buxoro tuman FXDYO bo‘limida joriy yilning birinchi choragi davomida FXDYO bo‘limida 46 ta nikoxdan ajralish qayd etilgan bo‘lib, 48 ta bolalar otasi va onasi bo‘laturib, tirik yetimga aylandilar.

Farzand to‘la-to‘qis oilada ota va ona mehri, tarbiyasidan bahramand bo‘lganidagina barkamol voyaga yetadi, ham ruhan, ham ma‘nan sog‘lom, mukammal inson sifatida shakllanadi. Buning uchun ham otaning, ham onaning mas‘uliyati mavjud bo‘lib, ular zimmasidagi mazkur ustuvor vazifalar nikohga qadar tushuntirilmog‘i, ongiga singdirilmog‘i dardkor.

Nikohdan ajrashishga ariza berayotgan ota pushti kamaridan bo‘lgan farzandining kelajak taqdiriga befarq bo‘lsa, uning to‘layotgan aliment puli bolasining qornini tuyg‘azsa-yu, biroq, farzandiga otalik mexrini, qalb qo‘rini bera olmasa, hayotda tanlagan yo‘lidan borish sirini o‘rgatmasa, otaning otalik vazifasi qayerda koladi? Ota mehriga, shirin so‘ziga tashna bo‘lib ulg‘aygan bolalarning ko‘ngli kemtkligicha qoladi va atrofdagilarga nisbatan alamzadalik ruhida ulg‘ayadi. Shu ruhda ulg‘aygan bolalarning kelajagi doim ham so‘roq ostida qoladi.

Ajrimlarga har doim ham otalar sabab bo‘layapti, deyish fikridan yiroqmiz. Oilada yaxshi tarbiya ololmagan, kelinlik vazifalarini anglab yetmagan, oliy qadriyatlarga bepisand munosabatda bo‘lgan qizlar ham borki, ular qilmishlari oqibati ortidan boshlarini pushaymonlik devoriga urishga majbur bo‘layotirlar. Har qanday holatda ham katta aziyat, ulkan jabr bolalarga bo‘layotganini “xotin olarman” otalaru, “har sochimning tolasi er” deydigan onalar chuqur o‘ylashlari dardkor. Burgaga achchiq qilib ko‘rpa kuydirganlar, bundan faqat yutqazganingizni unutmang.

D.FAXRIDINOVA,
Buxoro tuman FHDYO bo‘limi inspektori

NIKOH TUZILGANDA FAMILIYANI TANLASH

Nikoh tuzilganligini qayd etishda nikohlanuvchi shaxslar o‘z xohishlariga ko‘ra ikkalasidan birining familiyasini umumiy familiya sifatida tanlashlari yoki o‘zlarining nikohgacha bo‘lgan familiyalarida qolishlari mumkin.

Nikohlanuvchilar familiyalarining qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan familiya (masalan, kuyov Ahmedov kelin Shuhratova. Shunda kuyov Ahmedov-Shuhratov kelin Ahmedova-Shuhratova bo‘ladi) umumiy familiya sifatida tanlanishi mumkin.

Nikohlanuvchilardan biri er yoki xotinning familiyasini qabul qilsa, u holda pasportini 1 oy ichida almashtirishi zarurligi to‘g‘risida ogohlantiriladi va pasportga bu haqda belgi qo‘yiladi.

Harbiy xizmatga majbur bo‘lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchining nikohi qayd etilganligi sababli familiyasi o‘zgartirilganda FHDYO organi 7 kun mobaynida bu haqda harbiy xizmatga majbur bo‘lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchi ro‘yxatda turgan tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limiga xabar qiladi.

Nigora RO‘ZIYEVA,
Buxoro shahar 1-FHDYO bo‘limi inspektori

NIKOH DAN AJRATISH:

qaysi holda FHDYO yoki sud tartibida amalga oshiriladi?

Ma‘lumki, nikoh tuzishni xohlovchi shaxslar bu to‘g‘rida ariza bilan murojaat etgan kundan keyin bir oy o‘tgach, ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organi tomonidan qayd etiladi. Nikohni bekor qilish-chi? Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat bermasa-chi? Ko‘pincha er-xotinni nikohdan ajratishda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida va sud tartibida qanday amalga oshiriladi, degan savollar ham kelib tushadi.

Er-xotin o‘rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta‘minot berish to‘g‘risida nizo mavjud bo‘lganda;

er-xotin o‘rtasida umumiy mulkni bo‘lish to‘g‘risida nizo yuzaga kelgan bo‘lsa;

ular o‘rtasida bolalar bilan bog‘liq mojaro paydo vujudga kelganda;

ikkalasidan biri nikohdan ajratish to‘g‘risida ariza berishdan bosh tortsa yoki FHDYO organiga ariza berish uchun shaxsan kelish imkoniyatiga ega bo‘lmasa yoxud ariza berib, nikohdan ajratishni qayd etish uchun hozir bo‘lmagan taqdirda;

spirtli ichimliklar, narkotik vositalar yoki psixotrop moddalarni suiiste‘mol qilishi oqibatida muomala layoqati cheklangan shaxslar bilan nikohdan ajratish bo‘yicha muammo paydo bo‘lganda – nikohni bekor qilish sud tartibida ko‘riladi.

Binobarin, voyaga yetmagan umumiy bolalari bo‘lmagan er-

xotinning o‘zaro roziligi bo‘lgan taqdirda;

er-xotindan birining arizasi bo‘yicha, ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalar borligidan qat‘i nazar, er-xotindan biri sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa; ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa (bunda ham er-xotindan birining arizasi bo‘yicha, ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalar borligidan qat‘i nazar);

sodir qilgan jinoyati uchun 3 yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa (bunda ham er-xotindan birining arizasi bo‘yicha, ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalar borligidan qat‘i nazar), bunday hollarda er-xotinni nikohdan ajratish FHDYO organlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Nargiza SALIYEVA,
Buxoro shahar 1-FHDYO
bo‘limining 1-toifali inspektori

TUMANIMIZ TARIXINI O'RGANAMIZ

Hozirgi avlod o'zi yashab turgan Vatan, kindik qoni to'kilgan tuproq tarixini puxta o'rgansa uni yelkasida ko'tarib turgan zamin naqadar muqaddasligini dildan his etadi.

Buxoro tuman Axborot kutubxona markazining bibliografiya xizmati mutaxassislari tomonidan Buxoro tumanining 97 yilligi munosabati bilan "Tarixga naqshlanayotgan o'lkam" rukni ostida foydalanuvchilarga tariximizga doir qimmatli ma'lumotlar taqdim etib kelinmoqda.

Buxoro tumani – Buxoro 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Mazkur tuman shimolda viloyatning Vobkent va Romitan, g'arbda Jondor, sharqda Kogon, janubi-sharqda Qorovulbozor hamda Qiziltepa tumanlari (Navoiy viloyati) bilan chegaradosh. Maydoni – 129725 ming kilometr. Aholisi – 175.5 ming kishi. Buxoro tumanida 1 ta shahar (Galaosiy) 36 ta mahalla fuqarolar yig'ini faoliyat ko'rsatmoqda.

1939 – 1944 yillarda Buxoro tumani Buxoro shahridan ajratilib, uning markazi Otbozorga ko'chirildi. Buxoro shahrining shimolida xo'jalik hisobidagi bosh avtobekatga yaqin joyda Otbozor qishloq sho'rosi ijroiya kengashi ham tuzildi. 1944 – 1948 yillarda tuman markazi yana Otbozordan Galaosiy qishlog'iga ko'chirildi. 1948 – 1952 yillarda Buxoro tumani markazi Buxoro shahriga ko'chirildi. 1952 – 1959 yillarda Buxoro tumani hududi ikki qismga bo'lindi. Biri Buxoro tumani, ikkinchisi Galaosiy tumani deb nomlandi. 1959 yilda har ikkala tuman birlashtirilib, Buxoro tumani vujudga keldi.

"Galaosiy" so'zi "bir talay tegirmon yoki dastgoh" ma'nosida qo'llaniladi. Ayni paytda Galaosiy shahri Buxoro tumanining markazi sanaladi. Bu yerda asosan o'zbeklar, qisman tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, ruslar, tatarlar va boshqa millat vakillari yashashadi. Aholining 95,8 foizini o'zbeklar, 3 foizini tojiklar, qolganini turkmanlar, ruslar va boshqa millat vakillari tashkil qiladi. Galaosiy qishlog'i tuman markaziga aylantirilgach, qurilish va obodonlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Bu yerdagi Jayxun, Kangav, Jo'zvar ariqlarida o'rnatilgan suv tegirmonlari ta'mirlanib, to'la ishga tushirildi. Tuman xo'jaligining asosiy tarmoqdarisi – paxtachilik, chorvachilik, ipakchilik, sabzavotchilik va hunarmandchilikdan iborat.

Ta'kidlash joizki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 2019 yil 4354 — Qaroriga asosan joylarda kutubxonalar qaytadan tashkil etildi. Jumladan Galaosiy tuman markazida yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ham yangi kutubxona foydalanishga topshirildi. Tumanda aholi salomatligiga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik tufayli keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Buxoro tuman tibbiyot birlashmasi, uning bo'limlari, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi, qishloq vrachlik punktlari yangi qiyofa kasb etdi. Ular zamonga mos tashxislash va davolash apparatlari bilan jihozlandi. Yangi markaziy polinika oldida yangi, zamonaviy tug'ruq kompleksi qad ko'tardi. Tibbiyotimiz kundan kunga bilimli va salohiyatli kadrlar bilan boyib bormoqda.

M.MAHMUDOVA,

Buxoro tuman Axborot kutubxona markazi Axborot bibliografiya xizmati rahbari

TUG'ILGANLIK HAQIDAGI GUVOHNOMANI OLIISH UCHUN FHDYOGA BORISH SHART EMAS

Hukumatning 2022 yil 29 sentyabrdagi 540-son qaroriga asosan Toshkent shahrida tug'ilganlikni tibbiyot muassasalari orqali FHDYO bo'limlarida qayd etish tartibi joriy etildi.

Endilikda bola tug'ilishi bilan, tibbiyot muassasa u va ota-onasi haqidagi ma'lumotlarni, jumladan:

bola ro'yxatga qo'yiladigan poliklinika va ichki ishlar bo'limi, navbatga qo'yiladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti haqidagi ma'lumotlarni maxsus elektron blankaga kiritadi va avtomatik ravishda FHDYO bo'limiga axborot tizimi orqali yuboradi.

FHDYO bo'limi tug'ilganlikni qayd etadi va QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani tibbiyot muassasasiga yuboradi.

Tibbiyot muassasalari ushbu ma'lumotnoma bolaning ota-onasiga taqdim etadi. Ushbu ma'lumotnoma tug'ilganlik haqidagi gerbli guvohnomaga tenglashtiriladi hamda davlat organlari va tashkilotlar tomonidan qabul qilishni rad etish qat'iy taqiqlanadi.

Tug'ilganlik haqidagi gerbli guvohnoma fuqarolarning istalgan vaqtdagi murojaatlariga asosan FHDYO bo'limlari tomonidan eksterritorial tamoyil asosida rasmiylashtirib beriladi. Otalik belgilash va yolg'iz ona arizasiga asosan tug'ilishni qayd etishda hamda topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug'ilishini qayd etishda bevosita FHDYO bo'limiga murojaat qilinishi lozim.

Jonibek RAYIMOV,
G'ijduvon tuman FHDYO bo'limi
2-toifali inspektori

OTANGGA RAHMAT, SAIDSHOH!

Joriy yilning 16-21-may kunlari Italiyaning Barletta shahrida "Citta di Barletta" nomli 33-Xalqaro yosh ijrochilar tanlovida Italiya, Germaniya, Bolgariya, Xitoy, Kanada, Rossiya, Birlashgan Arab Amirligi, Ukraina, Tailand, Koreya, Marokko, Serbiya, Isroil, Sloveniya, Polsha, Irlandiya, Armaniston

kabi davlatlardan vakillar ishtirok etdi. Ular qatorida

mamlakatimizdan R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o'quvchilari munosib ishtirok etib, yuksak natijalarni qo'lga kiritdilar.

Xususan, 8-sinf o'quvchisi Saidshoh G'ulomov Gran-Pri sohibiga aylandi. Shu bilan birga Saidshohga mazkur tanlovda tashkil etilgan Gala konsertda ishtirok etish nasib etdi.

Yaqinda bu yosh ijrochi yosh pianinotchilar orasida o'tkazilgan nufuzli tanlovda yetakchi bo'lgandi.

Yutular bardavom bo'lsin! Otangga rahmat, Saidshoh!



Millionlar o'yini futbol qadimiy bo'lib, inglizlar e'tirof etishicha, Britan orollarida IX asrda vujudga kelgan. 1863 yilda Londonda Angliya futbol uyushmasi tashkil etilgan. Bugun mazkur sport turi bilan butun dunyo qiziqmoqda...

O'QUVCHILARGA FUTBOL O'YINI TAKTIKALARINI O'RGATISH

Hukumatimiz bolalar sportini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab maktablarda boshqa sport turlari qatorida futbol o'yinlariga qiziqishni oshirish, bu bo'yicha iste'dodli yoshlar bilan shug'ullanish borasida jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari oldiga ustuvor vazifalar qo'yilgan.

Futboldagi texnik usullar futbol o'yinini vujudga keltirish vositasidir. Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihatdan futbolchining ana shu turli xil vositalarni qanchalik to'liq bilishiga, taktikalarni o'rnida qo'llay olishiga bog'liq.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobaynida futbol texnikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu evolyusiyaning asosiy yo'nalishlari boshning chakka qismi va orqasi bilan zarba berish, to'pni boldir bilan tuxtatish singari nomaqbul usul va usullarni qo'llash ancha kamayib ketdi. Oyoq yuzi bilan zarba berish, to'pni son va ko'krakda to'xtatish, to'pni qo'l bilan tashlash (darvozabon texnikasi) kabilardan foydalanish koeffitsienti oshdi. Aldash harakatlari (fintlar) taraqqiy etib keldi.

Hozirgi futboldagi texnik usullar o'yin harakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan etarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan, biomexanika nuqtai nazaridan maqbul harakatlar tizimi bilan xarakterlanadi. Futbol texnikasini qo'llashga qo'yiladigan bugungi kundagi talab tezlik va ishonchlilik, soddalik va samaradorlikdan iborat.

Futbol o'yini texnikasining tasnifini texnik usullarni umumiy o'ziga xos belgilariga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin, ya'ni maydon o'yinchisi texnikasi va darvozabon o'yin texnikasiga.

Har qaysi bo'lim esa o'z navbatida harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi kabi bo'limchalariga taqsimlanadi. Kichik bo'limlar turli usullarda ijro etiladigan muayyan texnik usullardan: harakatlanish texnikasi usullaridan iborat. Ulardan maydon o'yinchilari va darvozabon foydalanadi. Ammo ayrim usullar o'zining muayyan turlariga ega. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo'lib, detallardagina farq bo'ladi.

Bilim dargohimizda ham o'quvchilarga dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda futbol o'yinining taktikalari va nozik yondoshuvlarini o'rgatib kelmoqdamiz.

Amirbek MUHAMEDOV,

Romitan tumanidagi 11-maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi


AMMAJONIMGA

Xuddi pari-paykardek
Ammajonim bor mening .
G'ijduvoniy yurtida
Baxt-iqbolim bor mening .

Sitora ammam ustoz
Qoyilmaqom dars o'tar.
Shogirdlari yo'lini
Hamisha intiq kutar.

Ammajonim baxtimsiz,
Sizni sevib, quchaman.
Bir zum suhbat qurgan chog
Osmonlarga uchaman.

Farog'at ERGASHEVA,
Buxoro shahridagi 8-maktabning 10-sinf o'quvchisi





SIFATLI TA'LIM - KELAJAK POYDEVORI

Maktab — inson hayotida o'ziga xos o'rin egallovchi, uning bilimli, tarbiyali kamol topishida poydevor bo'lib xizmat qiluvchi ziyo maskani. Bu erga ta'lim-tarbiya olish uchun qadam qo'ygan har bir kishi, eng avvalo, o'zligini anglay boshlaydi, asta-sekin fanlarning qiziq, sehirli olamiga qadam qo'yib, bilimlarni o'zlashtirish orqali butun borliqni tushuna boradi. Shu jarayonlar natijasi o'laroq o'z kelajagini belgilaydi.

Yaxshi va sifatli ta'lim, ayniqsa, bugungi kunda zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bilimlar poydevorini esa maktab davridayoq mustahkam qurish lozim. Oddiy misol: jamiyatda qaysidir mavqega ega yoki ilm--fan, madaniyat va boshqa sohalarida ma'lum darajaga erishgan inson borki, uning zamirida maktab ta'limining o'rni beqiyos ahamiyatga ega bo'lganini takror va takror ta'kidlaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ta'lim-tarbiya — kelajak, hayot-mamot masalasi.

Yaqqin tarixga bir nazar tashlab ko'raylik. Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan kezlari amalga oshirgan dastlabki xayrli ishlaridan biri umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddatini 11 yil etib belgilagani bo'ldi. Chunki farzandlarimiz ta'limi va tarbiyasida juda katta e'tibor, kerak bo'lsa, nazorat talab qilinadigan vaqtda kasb-hunar kollejlari yuborishni lozim topdik.

Natijada nima bo'lgani barchamizga ayon. Biz ularga yaxshi bilim berishni ham, hunar o'rgatishni ham uddalay olmadik. Eng achinarlisi, tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullana olmay, milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushishiga sharoit yaratib berdik. Shuning uchun ham

davlatimiz rahbarining maktab ta'limini o'n bir yillik etib belgilash bilan bog'liq dastlabki islohoti ota-onalar tomonidan eng to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilingan qaror sifatida e'tirof etildi.

O'tgan vaqt davomida shaxsan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarning ta'lim-tarbiya olishiga keng imkoniyat yaratib berishga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ular qobiliyatini yanada rivojlantirish, maktab ta'limi jarayoniga o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish, zamonaviy bilimlar va chet tillarni puxta o'zlashtirish maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Biroq, bu sohada kamchiliklar ham bor.

Sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirish kerak. O'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi va ularni rag'batlantirish tizimini kuchaytirish nihoyatda muhim.

Shunday bir mexanizm ishlab chiqish kerakki, o'qituvchi ko'proq soat olishga emas, sifatli dars o'tishga intilsin.

Xulosa qilib aytganda, maktabda har bir o'quvchining o'ziga xos layoqati mavjud. Agar biz maktab ta'limida o'zgarish qilishni millatning, xalqning ertangi kuni — kelajagiga bog'liq jiddiy masala sifatida qabul qilar, o'qituvchilar o'z faoliyatiga kreativ yondashib, boladagi layoqatni qobiliyat darajasiga ko'tara olar ekanmiz, farzandlarimiz aqlli, bilimli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida kamol topadi.

O'g'iloy ISMATOVA,

Romitan tumanidagi 11-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ADVOKATURAGA OID YANGI NORMALAR KIRITILDI

Advokatura odil sudlovning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. BMT Kongressida qabul qilingan "Yuristlar roliga oid asosiy prinsiplarda advokatura institutini takomillashtirish demokratik-huquqiy taraqqiyotning birlamchi sharti ekanligi qayd etilgan.

Zero, davlat organlarining biron-bir huquq normasini qo'llashda o'z vakolatidan chetga chiqishini tiyib turuvchi mustahkam mexanizm kerak bo'ladi. Insoniyat tarixida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan bunday kuch esa fuqarolik jamiyati - nodavlat notijorat tashkilotlaridir.

Davlat esa, tabiatan nodavlat, mazmunan notijorat tizim bo'lmish advokatura institutini mustaxkamlashdan manfaatdor. Chunki davlatning eng muhim funksiyalaridan biri har bir shaxsni malakali yuridik yordam bilan ta'minlashdir. Malakali yuridik yordamga bo'lgan ehtiyoj davlatning jamiyat manfaatlarini yo'lida advokatura institutini har tomonlama rivojlantirishini taqozo etadi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasi ga advokatura oid alohida bob kiritilmoqda. Ushbu bobdagi 141-moddada "Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi", degan yangi norma mustahkamlanmoqda.

E'tiborlisi, advokatura institutining maqomini Konstitutsiya darajasida mustahkamlash taklif etilmoqda. Barchaga malakali yuridik yordam kafolatlanmoqda. Binobarin, malakali yuridik yordam har qanday shaxs yoki davlat organi xodimi tomonidan emas, balki tegishli malaka va litsenziyaga ega advokatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur norma advokatura faoliyatining asosiy prinsiplari belgilandi. Xususan, yagona kasbiy birlashmasi sifatida advokatura oid barcha masalalar bevosita advokatlar tomonidan hal etilishini nazarda tutuvchi - o'zini o'zi boshqarish prinsipi belgilandi. Bu esa, advokatlar kasbiy mustakilligining asosiy kafolati hisoblanadi.

Yana bir yangilik. o'zini o'zi boshqarish prinsipi advokaturaning mustaqilligisiz tasavvur etib bo'lmaydi, ular bir-birini takozo etadi va to'ldiradi. Shu bois, barcha advokatlarning orzu-umidi bo'lmish mustaqillik prinsipi konstitutsiyaviy darajada belgilandi.

Shuningdek, Konstitutsiyada advokatlik faoliyatida qonuniylik prinsipi ham nazarda tutilmoqda. Bu esa, tom ma'noda, davlat organlarining advokaturaning ichki ishlariga aralashishining oldini olishga xizmat qiladi.

Advokaturaga oid normalar Braziliya, Italiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning konstitutsiyalarida ham mustahkamlangan.

A. BAROTOV,

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Fuqarolarning mehnat huquqlarini amalga oshirish, ularni ish bilan ta'minlash va ishsizlikdan himoyalash, munosib mehnat uchun munosib ish haki bilan ta'minlash ijtimoiy davlatning asosiy shartlaridan biridir.

Shu bois Asosiy qonunda har bir shaxsning asosiy mehnat huquqlarini kafolatlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA MEHNAT HUQUQI

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 42-moddasida mehnat huquqi va uni amalga oshirishga oid quyidagi normalar belgilandi:

birinchidan, har kim munosib mehnat qilish huquqiga ega, degan norma mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida fuqarolarning mehnat qilish huquqi yangicha qarash bilan boyitilib, "munosib" so'zi bilan to'ldirildi. Endilikda "munosib mehnat" deganda, adolatli ish haki to'lanadigan ish joylari, yetarli mehnat sharoitlari va ishonchli ijtimoiy himoya ko'zda tutiladi.

Shuningdek, har kim xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga egaligi belgilandi. Xavfsizlik va gigiyena, talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlari deganda, xavfsizlik standartlari, sanitariya normalari va qoidalari, gigiyena normalari talablari asosida ish joylarini tashkil etish tushuniladi. Bunday sharoit xodimlarni kasb kasalliklari, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va insonlar o'limini yoki sog'ligiga zarar yetkazishning oldini oladi.

Ushbu masala bo'yicha 2006 yilda Xalkaro mehnat tashkiloti tomonidan Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari to'g'risidagi Konvensiya qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston 2021 yilda ushbu hujjatni ratifikatsiya qilgan;

ikkinchidan, mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga hak to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli hak olish huquqiga ega degan norma nazarda tutildi. Shu maqsadda har yili mehnatga hach to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdori belgilanadi.

Mehnat huquqiga oid ushbu yangiliklar fuqarolarimizga hayoti va sog'ligi uchun zarar yetkazmaydigan ish joylarda ishlashga, mehnatiga yarasha munosib ish haki olishga konstitutsiyaviy kafolat yaratadi.

N.MARDONOVA,

Buxoro viloyat FHDYO arxivi mudirasi



DAVLAT XIZMATIGA KIRISHDA TENG HUQUQLILIK MASALALARI

Davlat xizmati samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri davlat idoralariga ishga qabul qilishning ochiq-oshkora tizimini joriy etish hisoblanadi.

Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 37-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar", degan qoida belgilandi. Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi prinsipi 2022 yilda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda ham mustahkamlangan.

Mamlakatimizda davlat organlarida davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko'tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari amal qilmokda.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 25-moddasida "har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashsiz o'z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish" huquqiga egaligi belgilangan.

O'xshash normalar Italiya, Latviya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan.

Bunday huquqning berilishi fuqarolarga davlat xizmatiga kirishda ortiqcha talablar qo'yilishining, korrupsiyaviy holatlar, mahalliylik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik kabi illatlarning oldini oladi. O'zbekiston fuqarolarining davlat xizmatiga kirishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishi davlat xizmatining jozibadorligi va raqobatdoshligi oshishiga xizmat qiladi, o'z navbatida, davlat organlari faoliyati samaradorligi, xizmat ko'rsatish sifati, davlat xizmatining ochiqligi va professionaligini oshiradi.

Konstitutsiyada davlat xizmatiga kirishda teng huquqlilik masalalari.

Davlat xizmatiga kirishda nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanishi orqali teng huquqlilik amalga oshiriladi. Bir so'z bilan aytganda, bu jarayonda odam ajratmasdan, barchaga bir ko'z bilan qaraladi, "falonchining o'gli", "pistonchining jiyani" bo'lganligi uchun unga ustunlik berish kabi holatlarga aslo yo'l qo'yilmaydi. Eng asosiy mezon - professionallik talabi, ya'ni qanchalik darajada o'z kasbini chuqur bilishidir.

Davlat xizmati samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri davlat idoralariga ishga qabul qilishning ochiq-oshkora tizimini joriy etish hisoblanadi.

Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 37-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar", degan qoida belgilandi. Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi prinsipi 2022 yilda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda ham mustahkamlangan.

Mamlakatimizda davlat organlarida davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko'tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari amal qilmokda.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 25-moddasida "har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashsiz o'z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish" huquqiga egaligi belgilangan.

O'xshash normalar Italiya, Latviya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan.

Bunday huquqning berilishi fuqarolarga davlat xizmatiga kirishda ortiqcha talablar qo'yilishining, korrupsiyaviy holatlar, mahalliylik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik kabi illatlarning oldini oladi.

N.MARDONOVA,
Buxoro viloyat FHDYO arxivi mudirasi



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ENG MUHIM SHARTI

Buxoro viloyati soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan viloyat soliq boshqarmasi hamda hududiy davlat soliq xizmati organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida rejim va xavfsizlikni ta'minlash, odob-axloq qoidalariga rioya etish, korrupsiya bilan bog'liq holatlar kelib chiqishini oldini olish yuzasidan 2023 yilning i-choragi mobayniida 7 marotaba (shundan 2 tasi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirokida, jamoaviy profilaktik yig'ilishlar o'tkazildi. Mazkur uchrashuvlarda 1303 nafarsoliq xizmati organlari xodimlari hamda 200 nafarga yaqin tadbirkor va fuqarolar ishtirok etdilar.

Bozorlar va savdo komplekslari shuningdek, aholi gavjum joylarda soliq organi xodimlarining g'ayri-qonuniy hatti-xarakatlari yuzasidan o'tkazilgan targ'ibot tadbirlaridamavzuga oid 80 ta bannerlar o'rnatilib, tadbir ishtirokchilariga 3000 dan tarqatma materiallar tarqatildi.

Bundan tashqari Buxoro viloyati davlat soliq

boshqarmasi Shaxsiy xavfsizlik bo'limi tomonidan 2023 yil 1 aprel holatida Buxoro viloyatida faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida korrupsion vaziyatlar bo'yicha 5 ta savoldan iborat anonim so'rov o'tkazildi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqdagi telegram kanalida ham tadbirkorlik subyektlari orasida soliq xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan anonim so'rov o'tkazilgan.

E'tiborlisi, so'rovnoma ishtirokchilar korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish - bu umumxalq ishi ekanligini anglagan holda har bir ishtirokchi so'rovnoma savollariga xolis va haqqoniy fikrlarini bildirishdi.

Ta'kidlash lozim, korrupsionerlarning ko'pchiligi ertami yoki kech qonunga yuzma-yuz keladi va o'z jinoyatlari uchun jazo oladi. Buni so'rovnomada ishtirok etgan ko'pchilik respondentlar ham ta'kidlashgan.

Yana bir muhim jihat, soliq organlarida korrupsiya holatining kamayishi fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligi darajasining o'sib borishi, jamiyatda korrupsiya va poraxo'rlik ko'rinishlariga murosasozlik munosabatining kuchayib borishi zarurligiga ham bilan bog'liqdir.

Shu jihatdan Buxoro viloyati soliq boshqarmasi Shaxsiy xavfsizlik bo'limi xodimlari tomonidan korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish yuzasidan targ'ibot tadbirlari va aholi o'rtasida so'rovnomalar o'tkazib borilayapti. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa yagona u ham bo'lsa soliq xizmati organlarinikorrupsiyadan holi tizimga aylantirishdan iboratdir.

Toxir TESHAYEV,
Buxoro viloyati Shaxsiy xavfsizlik bo'limi bosh inspektori

Stress gormonlarini fiziologik (normal) darajadan oshib ketishining salbiy oqibatlarini insulin sekretsiasining pasayishiga ("steroid" diabet), miya va orqa miya hujayralarining degeneratsiyasiga, o'sishning sekinlashishiga va boshqalarga olib kelishi mumkin. Stress ko'plab kasalliklarning namoyon bo'lishi va kuchayishi uchun asosiy xavf omilidir.

Stressning psixologik belgilari
-asabiylashish;
-yuqori sezuvchanlik;
-o'zlik va ruhiy tushkunlik hissi;
-pessimizm;
-tushkunlik;
-diqqatni jamlashda qiyinchilik;
-xotiraningpasayishi yoki yangi hodisalarga duch kelishda qiyinchilik.

Bunday turli xil alomatlar tufayli

stress nafaqat umumiy salomatlik holatiga, balki hayotning barcha sohalariga ham ta'sir qilishi mumkin. Va, birinchi navbatda, stress yurak-qon tomir kasalliklari (gipertenziya, stenokardiya, miokard infarkti), oshqozon-ichak trakti kasalliklari (gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning oshqozon yarasi), immunitetning pasayishi kabi patologik sharoitlarning rivojlanishi va namoyon bo'lishiga yordam beradi. Hozirgi vaqtda tibbiyotda "psixosomatik tibbiyot" deb ataladigan yangi yo'nalish rivojlanmoqda, bu yo'nalish stressning barcha turlari ko'plab kasalliklar rivojlanishining asosiy yoki qo'shimcha omili deb hisoblaydi. Stress ruhiy holatga ta'sir qilganligi sababli, qo'rquv, tushkunlik, ichki tashvish va hayajon, tajovuzkorlik hissi paydo bo'ladi.

Kuchli stress holatlarni davolashda psixoterapiya juda muhim rol o'ynaydi - psixologik vositalar bilan davolash (so'z, o'z-o'ziga ishonchni ta'kidlash va boshqalar). Shifokor, birinchi navbatda, hamdardlik bildirish, bemorni tinchlantirish va kundalik turmush tarzini tartibga solishga yordam berish orqali bemor ahvoliniyengillashtirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, u bemor bilan birgalikda depressiyaning ichki va tashqi sabablarini bartaraf etishga intiladi. Shu bilan birga, bemor o'z hayotini boshqarishni o'rganadigan faol xatti-harakat qiyofasini yaratishga alohida e'tibor beriladi. Bemorni izolyatsiyadan chiqarishga yordam beradigan va qoniqli insoniy munosabatlarni o'rnatishga imkon beradigan ijtimoiy ehtiyojlarni rag'batlantirish kerak. Keyinchalik, ortiqcha talablarga olib keladigan vaziyatlarni bartaraf etish kerak.

Ijoiy fikrlashni shakllantirish va hayotga ijobiy munosabatni o'rnatish kerak, chunki depressiyaga moyil bo'lgan odamlar o'zlariga va hayot tajribasiga "qora ko'zoynak" orqali qarashga moyildirlar.

Psixoterapiyaning bir necha usullari ma'lum:

- guruh usuli - muloqotdagi qiyinchiliklarni hal qilish, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini qadrlash va boshqalar;
- oilaviy usul - nikoh munosabatlarini uyg'unlashtirish, bolalarni tarbiyalash;
- musiqa terapiyasi va boshqalar.

Oziqlanishning tabiati stressga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun stressli sharoitlarda dietoterapiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ratsional ovqatlanish insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Nafas olishni ixtiyoriy tartibga solish ham kuchli stressni kamaytirish maqsadida ishlatiladi. Masalan stress holatlarida chuqur nafas olish mashqlari

Stressli vaziyatlarni davolashda meditatsiya ham qo'llanilishi mumkin



STRESS KO'PLAB KASALLIKLARNING SABABCHISI

S.SHUKUROVA,
Buxoro shahar 3-oilaviy poliklinikasi vrach radiologi

* Sulaymon Inoyatov 85 yoshda

MA'RIFAT BOG'INING BOG'BONI

XX asrning o'ttiz sakkizinchi yili. Oahraton chekinib, bahor kirgan kez. Navro'z ayyomi nishonlanadigan, o'g'il-qizlarning sho'x-shodon o'ynab-kuladigan, karnay surnaylar shovqini olamni tutishi kerak bo'lgan bir paytda Buxoro ko'chalarida sukunat. To'yu bazm ko'ngilga sig'maydigan kunlar edi. Inoyatxo'ja Atoullayev xonadoniga quvonch va qavg'u birdek keldi. Xonadonda avvalgilaridan o'zgacha yig'i tovushi yangradi. Dillar quvondi. Ko'zlar zavqlandi. Oalblarda umid uyg'ondi. Ko'ngillar bahor kelganini his qildi. XX asr Markaziy Osiyo tarixining zabardast vakili, tarixchi olim dunyoga keldi. Unga Sulaymon deb ism qo'ydilar.

Moxi xossa ko'chalarini shu go'dakning "inga"lari-yu, Supiya ayaning bo'g'iq allasi uyg'otardi.

Afsuslarki, bir yaxshining yomoni bo'lganidek oradan uch kun o'tib o'zbekning asl o'g'loni Fayzulla Xo'jayev sovet rejimi tomonidan qatl etildi. Otoullaxo'jayev ayrilig'ining yarasi bitmay navbatdagi yo'qotishlar o'rnini to'ldirish uchun ham, ular kurashib erisholmagan erk va ozodlikni ko'rish uchun ham Tangrining Inoyati bilan Sulaymon dunyoga keldi.

Uning yoshligi oson kechmadi, ozmuncha zahmat chekmadi. O'tin tashib kun kechirgan vaqtlari bo'ldi, "xo'ja ekanligi" uchun so'roq bergan vaqtlari bo'ldi. Urush yillari bolaligi o'tdi. Bola bo'ldiyu, biroq bolalik zavqini ko'rmadi. Barini yengdi. Yaxshi tarbiya va ta'lim oldi. Kitobga mehr qo'ydi.

U o'tgan asrning oltinchi yillari boshlarida Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi Buxoro davlat universiteti)ning tarix-filologiya fakultetini bitirdi. Tahsildan so'ng shu oliy dargohda o'qituvchilikka qoldirildi. Institut yoshlar qo'mitasini boshqardi, so'ngroq Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining aspiranturasida tahsil oldi. Ko'p o'tmay, Toshkent davlat universiteti Ixtisoslashgan Kengashida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi.

1969-1984 yillar davomida Buxoro davlat pedagogika institutida dars berish bilan bir qatorda rus filologiyasi fakultetida dekan va katta ilmiy xodim lavozimlarida ishladi.

1987 yil 7 dekabrda Moskva davlat pedagogika universitetida tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi.

Keyingi yillar Buxoro davlat pedagogika institutida kafedra mudiri, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, universitetning tarix fakulteti dekani lavozimlarida ishlab keldi.

Sulaymon Inoyatov mamlakatning birinchi Prezidenti Islom Karimovning farmoniga asosan Navoiy davlat konchilik instituti ochilishi munosabati bilan (1995 yil 5 dekabr) Buxoro davlat universitetidan ko'chirish yo'li bilan shu institutga birinchi prorektor etib tayinlandi.

Ustoz Navoiy viloyati tarixiga doir Navoiy viloyati bir qator kitob va monografiyalar yozdi va chop ettirdi.

Uning xizmatlari hukumat e'tiboridan chetda qolmadi.

"Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Olim o'tgan yillar davomida Respublika, Buxoro, Navoiy viloyatlari tarixini yaratishga muhim hissa qo'shdi.

S.Inoyatov 2016 yilning sentyabridan o'zining alma-materi hisoblangan Buxoro davlat universitetining "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" va "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasida professor lavozimida hizmat qilib kelmoqda.



Professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatov ko'p qirrali faoliyati uchun "Shavkatli mehnati uchun" medali (1970), "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" (1974), O'zbekiston xalq ta'limi "Faxriy yorlig'i" (1981), Oliy ta'lim a'lochisi (2001), "Ustoz" faxriy unvoni (2001), "Mustaqillikning 10 yilligi" esdalik nishoni (2001), "Do'stlik" (2002) ordeni, "Mehnat faxriysi" I darajali ko'krak nishoni (2022) va boshqa bir qator nishonlar bilan taqdirlangan.

Uning bugunga qadar 50 dan ortiq monografiya, risolalari hamda o'quv qo'llanmalari, 500 dan ortiq ilmiy, maqolalari chop etilgan. Ilmiy tadqiqotlari olimlar va keng kitobxonlar ommasiga ma'lum. Ustozning Respublika va viloyat gazetalarida 250 mdan ortiq ilmiy, publitsistik maqolalari chop etilgan.

Uning ilmiy rahbarligida 5 ta shogirdi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Bugungi kunda 3 nafar shogirdi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarini himoya qilish arafasida.

Sulaymon Inoyatov uch qiz va uch o'g'ilning otasi, o'n uch nevara va o'n to'rtta aberaning sevimli bobosidir.

Professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatov ko'p qirrali faoliyati uchun "Shavkatli mehnati uchun" medali (1970), "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi"

(1974), O'zbekiston xalq ta'limi "Faxriy yorlig'i" (1981), Oliy ta'lim a'lochisi (2001), "Ustoz" faxriy unvoni (2001), "Mustaqillikning 10 yilligi" esdalik nishoni (2001), "Do'stlik" (2002) ordeni, "Mehnat faxriysi" I darajali ko'krak nishoni (2022) va boshqa bir qator nishonlar bilan taqdirlangan.

Men ustoz Sulaymon Inoyatov bilan 2016 yildan e'tiboran Buxoro davlat universitetiga kelganlaridan so'ng shaxsan tanishganman. Unga qadar ayrim davralarda, tadbirlarda ko'rishganmiz, kitoblari orqali "diydor"lashganmiz. Doktorlik dissertatsiyam himoyasi jarayonida esa ustoz

bilan yanada yaqinroq tanishish imkoni bo'ldi. Kuzatishlar jarayonidan aytishim mumkinki, Sulaymon Inoyatov aslzoda xonadonning oliyjanob vakili. Zodagonlik unga ota meros, bobo meros.

Turli sabablar bilan ustozning uylariga borib turaman. Buxoro. Sheyxon mahallasidagi yettinchi uy. Moxi xossa yaqinidagi tarixiy xonadon.

Katta hovliga yaqinlashsangiz keng bog', ikki tomoni uzumzorga duch kelasiz. Pastdagi gullar chirmoviqdek toklarga o'ralashib, yuqorida g'unchalagan. Keng darvozadan kirib borar ekansiz hovli o'rtasida shotut ortidan so'lim bog'ga guvoh bo'lasiz. Bargidan mevasi ko'p xurmolar, olma, anor, gilolar, turli nihollar va azim chinor. Hovli oxirida issiqxonada turli gullar va limon ko'chatlari yetishtiriladi. Supaning pastida atrofi ariq bilan o'ralgan usti yopiq so'ri Abdullaxon toqlariga o'xshaydi. Atrofi anvoyi gullarga burkangan so'rida doimiy suhbatlar avjida bo'ladi. Mehmonlar hovli tomoshasiga ovvora bo'lguncha ustoz bisotida neki bo'lsa, barini dasturxonga jamlaydi. Bog'dagi pishib yetilgan gilolar-u, o'riklardan savatga solib o'rta qo'yadi. So'rining yon tomonidagi sariq gullardan mushk hidi butun hovliga bo'y taratib turadi. Ushbu ko'rkam manzaraga o'g'il-qizlari hamda nabiralari Asadbekning odob bilan xizmat qilishi o'zgacha shukuh bag'ishlaydi. Ushbu xonadonda dunyoning turli o'lkalaridan kelgan ziyolilarning izlari qolgan. Bu uyda ko'plab olimlar bahslashgan, shoirlar mushoira qurishgan. Hovlida o'tmish, bugun va kelajak yashaydi. Xonadon ko'plab katta-yu kichik olimlar uchun bilim uyi bo'lgan desak rost aytgan bo'lamiz.

Buyuklarni maqtoqlar bilan ta'riflash osondir, qog'ozga tushurish nihoyatda mashaqqatli. Aytilgan gap aytilgan joyda va ayrimlar xotirasida qolishi mumkin. Qog'ozga tushgani esa tarix zarvaraqlarida abadiyatga qoladi.

Bu yil Tangrining Inoyati Sulaymon Inoyatov 85 yoshga kirdilar. Ushbu qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin.

**Amonkeldi AXMATOV,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, t.f.f.d (PhD)**

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim hisoblanadi.

YAXSHI TARBIYA - INSON ZIYNATI

Oilada farzandlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onaning o'zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvoriga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi.

Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan ko'z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba'zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo'l ko'taradigan va o'z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo'layotgan kishilar uchraydi. Bundaylarning paydo bo'lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku? Bolasining insoniy xatti harakatlariga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo'lgan.

Yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o'qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo'lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma'lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo'shib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba'zan samarasiz bo'lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo'lmasligidir. Shaxs qanchalik mehruhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti harakatlardan shunchalik uzoq bo'ladi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o'z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat.

Tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya'ni kishi tug'ilganidan to o'lguniga qadar zarur bo'ladi. Bundan tashqari, bir tarbiya ko'rgan avlod o'rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo'ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligini va abadiyligini ko'rsatadi.

Nargiza ADIZOVA,

Romitan tumani 11-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

KORRUPSIYADAN XOLI TIZIM YARATISH DARKOR

Sir emaski, korrupsiyaga qarshi to'xtovsiz kurash olib borilmas ekan, har qanday davlatda ilm-fan, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, bank-moliya, sud-huquq, davlat boshqaruvi va boshqa inson manfaatlarini mavjud barcha sohalarida ildiz otib ketishi va mamlakatni ich-ichidan yemirib, halokatga yetaklashi turgan gap.

Bu illatga qarshi kurashishda uning oqibatlarini bilan emas, balki uni yuzaga keltiruvchi sabablarni aniqlash va bartaraf etish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuning uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini xalqaro standartlar, qonun hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish tizimini yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Kadastr agentligi va Davlat kadastrlari palatasining Buxoro viloyati boshqarmalari va uning tarkibidagi barcha tuman, shahar filiallari xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasiz kayfiyatni shakllantirish, tizimni «Korrupsiyadan xoli soha»ga aylantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ayni maqsadda soha xodimlari orasida ichki tartib-nizomlarga rioya qilish, vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik, tamagirlik, xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan yondashmaslik uchun doimiy ravishda profilaktik suhbatlar o'tkazilyapti. O'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarning samarasini birgina yildan-yilga xodimlar orasida poraxo'rlik illatining kamayib borayotganida ham ko'rish mumkin. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, 2021 yilda viloyatdagi tizim tashkilotlarida faoliyat yuritib kelgan 4 nafar xodim poraxo'rlik jinoyatini sodir etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 2 taga qisqargan. Joriy yilning o'tgan davrida esa bu illat bilan bog'liq holat qayt etilmagan.



DUNYO BOLALARINING HUQUQLARI MAJMU'I

BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi bolalar huquqlarini himoya qilishga va'da bergan mamlakatlarning muhim kelishuvidir. Dunyo rahbarlari 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida bu hujjatni qabul qilgan.

O'zbekiston bu Konvensiyaga 1992 yilda qo'shilgan.

Keling, Konvensiyaning bolalar uchun ayrim muhim jihatlari bilan taniqtirib chiqaylik.

Har bir bola ushbu Konvensiyada mustahkamlangan barcha huquqlardan foydalanishi uchun davlatlar hamma narsani qilishlari kerak.

Har bir bola tirik bo'lish huquqiga ega. Hukumatlar bolalarning omon qolishi va eng yaxshi tarzda rivojlanishini ta'minlashi kerak.

Bolalar tug'ilganda ro'yxatga olinishi va hukumat tomonidan rasman tan olingan ism berilishi kerak. Bolalar fuqarolikka ega bo'lishi kerak (bir mamlakatga tegishli). Iloji bo'lsa, bolalar ota-onalarini bilishlari va ularning nazorati ostida bo'lishlari kerak.

Bolalar o'zlariga ta'sir qiladigan masalalar bo'yicha o'z fikrlarini erkin ifoda etish huquqiga ega. Kattalar bolalarni tinglashlari va ularga jiddiy qarashlari kerak.

Bolalar internet, radio, televideniye, gazeta, kitob va boshqa manbalardan ma'lumot olish huquqiga ega. Kattalar, ular olgan ma'lumotlari zararli emasligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Hukumatlar ommaviy axborot vositalarini turli xil manbalardan barcha bolalar tushunadigan tillarda ma'lumot tarqatishga undashlari kerak.

Ota-onalar bolani tarbiyalash uchun mas'ul bo'lgan asosiy odamlardir.

Har bir nogiron bola jamiyatdagi eng yaxshi hayotdan bahramand bo'lishga haqli. Hukumatlar nogiron bolalarning mustaqil bo'lishiga va jamiyatda faol ishtirok yetishiga to'siqinlik qiladigan barcha to'siqlarni olib

tashlashlari kerak.

Har bir bola ta'lim olish huquqiga ega. Boshlang'ich ta'lim bepul bo'lishi kerak. O'rta va oliy ma'lumot har bir bola uchun mavjud bo'lishi kerak. Bolalarni maktabga imkon qadar yuqori darajada borishga undash kerak. Maktablardagi intizom bolalar huquqlarini hurmat qilishi va hech qachon zo'rovonlik ishlatmasligi kerak.

Har bir bola dam olish, dam olish, o'yinlar va madaniy va ijodiy tadbirlarda ishtirok yetish huquqiga ega.

Zararli ishlardan himoya qilish. Bolalar ta'lim, sog'liq yoki rivojlanish uchun xavfli yoki zararli bo'lgan ishlarni bajarishdan himoyalash huquqiga ega.

Agar bolalar ishlayotgan bo'lsa, ular xavfsizlik va adolatli ish haqi olish huquqiga ega.

Hukumatlar bolalarni zararli dori-darmonlarni qabul qilish, ishlab chiqarish, tashish yoki sotishdan himoya qilishi kerak.

Hukumatlar bolalarni o'g'irlab ketmaslik, sotish yoki boshqa mamlakatlarga yoki ekspluatatsiya qilish joylariga olib ketmaslik (o'z manfaatlarini uchun foydalanish)ni ta'minlashi kerak.

Qonunni buzganlikda ayblanayotgan bolalar huquqiy yordam va adolatli munosabatda bo'lish huquqiga ega. Bu bolalarga o'z jamoalarining yaxshi a'zosi bo'lishga yordam beradigan ko'plab yechimlar bo'lishi kerak. Qamoqxona faqat oxirgi tanlov bo'lishi kerak.

Bolalar uchun eng yaxshi qonun amal qiladi. Agar mamlakat qonunlari bolalar huquqlarini ushbu Konvensiyadan yaxshiroq himoya qilsa, unda ushbu qonunlardan foydalanish kerak.

Har bir inson bolalar huquqlarini bilishi kerak. Hukumatlar bolalar va kattalarga ushbu Konvensiya to'g'risida faol ravishda ma'lumot berishlari kerak, shunda hamma bolalar huquqlari to'g'risida biladi.

**Umidjon TURDIYEV,
Qorako'l tuman adliya bo'limi
bosh yuristkonsulti**

Tizimda korrupsiyaning oldini olish borasida xodimlar kesimida uchrashuv, seminar va davra suhbatlari doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda. Hududlarda mahallalar va jamoatchilik faollari bilan hamkorlikda umumprofilaktik tadbirlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, kelib tushgan murojaatlarni o'rganish jarayonida va olingan ma'lumotlarga asoslangan holda tizimdagil xodimlarga nisbatan yakka tartibda profilaktik tadbirlar tashkil qilindi. Shuningdek, xodimlar tomonidan korrupsiya holatlariga yo'l qo'yimaslik, xizmat davrida korrupsiyaviy holatlarning oldini olish bo'yicha ularning har biridan tilxat hamda kafolat xatlari olindi.

Shuningdek, bu borada ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqda 100 dan ortiq materiallar e'lon qilindi. Shahar-tuman bo'lim filiallari rahbarlari tomonidan o'tkazilgan rejaviy yig'ilishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tushuntirish-profilaktik tadbirlarini o'tkazish amaliyoti joriy etildi.

O'tkazilgan umumprofilaktik tadbirlarda korrupsiya jinoyatining oqibatlarini, sohada kuzatilayotgan korrupsion holatlar tahlil qilinib, yig'ilganlarga yetkazib kelinmoqda.

**S. ABDULLAYEV,
Kadastr agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha bosh mutaxassisi**

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yangilangan Konstitutsiya to'g'risida o'z munosabatini bildirib: "To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, yerkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda", degan edi. Inson manfaatlariga xizmat qiluvchi ushbu hujjat bilan tanishar ekansiz, yuqoridagi fikrlar nechog'li haqiqatga yaqin ekanligiga amin bo'lasiz.

INSON MANFAATLARINING KAFOLATI

Yangilangan Konstitutsiya 155 modda va 434 ta normadan iborat. Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Asosiy qonunimizning 15-moddasida Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi qoidasi belgilab qo'yilgan.

Umuman olganda, oliy yuridik kuch ega deganda-normativ-huquqiy hujjatlarning iyerarxiyasida eng yuqori o'rinda turishi hamda boshqa har qanday huquqiy hujjatlardan ustunligi tushuniladi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilinishini 3 ta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin.

Birinchidan, shaxsning konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishi;

Ikkinchidan, barcha subyektlarning konstitutsiyada belgilangan talab va majburiyatlarga rioya qilishi;

Uchinchidan, vakolatli davlat organlarining konstitutsiyaviy normalarini qo'llashi va ijrosini ta'minlashi lozim. Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi-ijtimoiy munosabatlarni bevosita konstitutsiya normasini qo'llagan holda tartibga solish va hal etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi "Konstitutsiya va qonunning ustunligi" deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo'limida joylashgan.

Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi orqali fuqarolar Konstitutsiyadan foydalanib, asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniga ega bo'ladi.

Misol uchun, fuqarolar O'zbekiston hududida erkin harakatlanish huquqi Konstitutsiyada belgilangan bo'lib, mazkur huquqdan biror-bir mansabdor shaxsning buyrug'i yoki topshirig'ini ro'kach qilib cheklashga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno.

Yana bir misol, Konstitutsiyaning 47-moddasida mustahkamlangan qoidaga asosan, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Mazkur huquq buzilsa, fuqaro aynan Konstitutsiyada mening huquqim kafolatlangan deb, tegishli o'z huquqini tiklashi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblandigan hujjat sifatida qabul qilindi.

Ulug'bek TO'XTAYEV,
Kogon tuman adliya bo'limi boshlig'i

MAHKUM BILAN NIKOHDAN O'TISH MUMKINMI?

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan shaxslar bilan nikohni qayd etish shu muassasa joylashgan hududdagi FHDYO organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum bilan nikohga kirishni xohlovchi shaxs, nikohga kirish haqidagi maxsus blankadagi arizaning o'ziga taalluqli qismini to'ldirib doimiy yashayotgan yoki jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi FHDYO organiga topshiradi. FHDYO organi arizada keltirilgan ma'lumotlarni ariza beruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan solishtiradi, arizada qayd etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini va arizachining imzosini tasdiqlaydi va unga arizani qaytaradi. Shundan so'ng mahkum bilan nikohga kirishni xohlovchi shaxs bu arizani mahkumga berishi uchun jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatiga topshiradi.

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati arizani olgandan so'ng, uni tegishli joyini to'ldirish uchun mahkumga taqdim etadi, to'ldirilgan arizadagi ma'lumotlarni mahkumning shaxsiy yig'ma jildidagi ma'lumotlar bilan solishtiradi, ularning haqiqiylikini va imzosini tasdiqlaydi va arizani jazoni ijro etish muassasasi joylashgan mazkur hududdagi FHDYO organiga yuboradi.

Arizani qabul qilib olgan FHDYO organi uni ro'yxatdan o'tkazadi, shu kunning o'zida nikohga kiruvchi mahkumning tibbiy tekshiruvdan o'tishi uchun yo'llanma va nikohni qayd etish vaqtini belgilash to'g'risidagi xabarnomani jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatiga yuboradi.

Agar mahkumning shaxsiy yig'ma jildida uning oilaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar to'liq bo'lmasa, kam yoki noaniq bo'lsa, u holda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati bu ma'lumotlarni tegishli tashkilotlar va muassasalar orqali ularni talab qilib olish yoki aniqlash choralarini ko'radi.

Jazoni o'tash muassasalari ma'muriyati mahkumni nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan belgilangan tartibda o'tkazadi.

Mahkum bilan nikohni qayd etish FHDYO organi bilan kelishilgan holda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati tomonidan ajratilgan binoda nikohga kiruvchi shaxslarning ishtirokida amalga oshiriladi.

Mahkum bilan nikohga kiruvchi shaxsga FHDYO organi tomonidan nikoh qayd etilganligi haqida guvohnoma beriladi.

Sudgacha qamoqda ushlab turilgan shaxslar bilan nikohni qayd etish tergov ishini olib borayotgan mansabdor shaxs yoki organ ruxsati bilan shu hududdagi FHDYO organi tomonidan, vaqtincha saqlash hibxonasida amalga oshiriladi.

G. RADJABOVA,
Romitan tuman FHDYO bo'limi mudirasi

MEHNAT SHARTNOMASI QANDAY ASOSLARGA KO'RA BEKOR QILINADI?

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 155-moddasida mehnat shartnomasini bekor qilish, ya'ni xodim va ish beruvchi o'rtasidagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni tugatish asoslari ko'rsatib o'tilgan

Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari quyidagilardan iborat:

- 1) taraflarning kelishuvi (ushbu Kodeksning 157-moddasi);
 - 2) mehnat shartnomasi muddatining tugashi (ushbu Kodeksning 158-moddasi);
 - 3) mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish (ushbu Kodeksning 160-moddasi);
 - 4) mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish (ushbu Kodeksning 161-moddasi);
 - 5) tashkilot mulkdorining almashganligi, uning qayta tashkil etilganligi, tashkilotning idoraviy taalluqliligi (bo'ysunuvi) o'zgartirilganligi munosabati bilan xodimning ishini davom ettirishni rad etishi (ushbu Kodeks 156-moddasining beshinchi qismi);
 - 6) xodimning yangi mehnat shartlarida ishlashni davom ettirishni rad etishi (ushbu Kodeks 137-moddasining to'rtinchi qismi);
 - 7) xodimning ish beruvchi bilan birga boshqa joyga ishlash uchun ko'chishni rad etishi (ushbu Kodeks 146-moddasining beshinchi qismi);
 - 8) xodimning tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lmagan boshqa ishga o'tkazishni rad etishi yoxud ish beruvchida tegishli ish bo'lmagan taqdirda (ushbu Kodeks 143-moddasining ikkinchi qismi);
 - 9) taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar (ushbu Kodeksning 168-moddasi);
 - 10) yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o'tmaganlik yoxud saylovda, tanlovda ishtirok etishni rad etish (ushbu Kodeksning 169-moddasi);
 - 11) ushbu Kodeks yoxud boshqa qonunlar alohida toifadagi xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida mehnatga oid munosabatlarni tugatishning qo'shimcha asoslari to'g'risidagi shartni nazarda tutish imkoniyatini mustahkamlaydigan hollarda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslar.
- Mehnat shartnomasi ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan o'zga asoslar bo'yicha ham bekor qilinishi mumkin.

F. SADULLAEVA,
Romitan tuman FHDYO bo'limi inspektori

DAVLAT IJROCHISI ISHI YUZASIDAN SHIKOYATLARNI MA'MURIY SUD

Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlar huquqlarining samarali himoyasini ta'minlash maqsadida 26.04.2023 yildagi O'RQ-833-son Qonuni bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, Jinoyat-prosessual kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, kassasiya instansiyasi sudi mansabdor shaxslarning e'tiborini surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga qaratish zarur bo'lganda xususiy ajrim chiqaradi.

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartishga ko'ra:

Barcha sud hujjatlari asosida beriladigan ijro varaqalari 3 yil ichida ijroga topshirilishi mumkin. Ilgari iqtisodiy sudlarniki 6 oy ichida edi;

Davlat ijrochisining har qanday qarorlari yoki harakatlari ustidan shikoyat faqat ma'muriy sudga yoxud bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga beriladi.

Ilgari iqtisodiy sud bilan bog'liq ijro yuzasidan iqtisodiy sudlarga shikoyat berilgan.

Shuningdek, mazkur qonun bilan Fuqarolik prosessual kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, endilikda o'zaro bog'liq bo'lgan, ba'zilar fuqarolik sudiga, ba'zilar esa ma'muriy sudga taalluqli bir nechta talabni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ilgari mazkur ishlar birlashtirilib barcha talablar fuqarolik sudida ko'rilgan.

Talab fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda taqdim etilgan taqdirda, da'vo arizasi taalluqliligiga ko'ra iqtisodiy sudga yoki ma'muriy sudga ko'rib chiqish uchun o'tkaziladi.

Iqtisodiy yoki ma'muriy suddan ariza yoki ish materiallari sudga taalluqliligiga ko'ra kelib tushganda sudiya ariza tegishli talablarga muvofiq emasligini aniqlagach, ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran 10 kundan kechiktirmay da'vogarni kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi va unga buning uchun 10 kundan oshmaydigan muddat beradi.

Bundan tashqari, mazkur Kodeksga kassasiya shikoyatini ko'rmasdan qoldirish hamda kassasiya shikoyati bo'yicha ish yuritishni tugatish bilan bog'liq asoslar kiritildi.

Azizbek ISTAMOV,
Buxoro viloyat FHDYO arxivi mas'ul xodimi

MAQSADIMIZ - VATANNI HIMOYALASH VA MILLATGA KAMARBASTA BO'LMOQ

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir, degan edi. Darhaqiqat yoshlarni vatan taqdiriga, uning himoyasi va porloq kelajagi uchun kamarbasta qilib tarbiyalash bugun har birimizning burchimizdir.

Vatanni himoya qilish barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo'lgan milliy armiyamiz va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan halqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashda olib borayotgan xizmatini munosib baholash hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Armiya va xalq – bir tanu bir jon!" degan olijanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharafli burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi" deb aytgan gaplarida ham Qurolli Kuchlarimizning xalq bilan har qachongidan ham yaqinligini anglashimiz mumkin.

Chirchiq oliy qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida o'qiyotgan va mamlakatimizning barcha hududlaridagi milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan askar o'g'lonlarimiz ham aynan shu vatan, shu el koriga yaraydigan, qasamyodiga sodiq, harbiy jihatdan chiniqqan, sabr va matonatli, ma'nan etuk, jangovor qat'iyat bilan tarbiyalanmoqda. Maqsadimiz - vatanni himoyalash va el xizmatiga kamarbasta bo'lmoqdir.

B. MUHIDDINOV,

Chirchiq oliy qo'mondonlik muhandislik bilim yurti katta o'qituvchisi

KASBIM MENING – FAXRIM MENING

Kasbiga mehrini bergan insonlarni barcha sohalarida uchratish mumkin. Aslida insonni halovatda yashashi uchun ko'p narsaning keragi yo'q. Tinch totuv hayot, mehribon oilasi, o'zi qadrlaydigan kasb va mehnati ortidan turmush farovonligi bo'lsa bas.

Kasblarning katta-kichigi yoki yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Faqat o'z kasbiga sadoqat, kasbning nozik jihatlari o'rganish, shu kasbning yetuk egasi bo'lish muhimdir.

Jamiyatning rivoji va kelajagi uchun eng zaruriy kasblardan biri bu energetika sohasidir. Sohada mehnat qilish, ayniqsa rahbarlik qilish uchun kishidan chuqur bilim, yuqori saviyadagi malaka, kasb etikasi va muomala madaniyati talab etiladi. Lekin mening oldimga energetika va quruvchilik sohalaridan birini tanlash imkoniyati qo'yilsa, men shubhasiz, ikkinchisini tanlagan bo'lardim. Chunki bunyodkorlikka ishtiyoq mening qonimda bor.

Yoshlik chog'imdanoq shu niyatni oldimga maqsad qilib qo'yganim va shu maqsadim sari intilmoqdaman. Axir aytishadiku, intilganga tole yor deb.

Har bir insonning menimcha o'z oldiga bir maqsadi bo'ladi va o'sha maqsadiga qarab intiladi. Maqsadsiz inson bo'lmasa kerak yoki bo'lsa ham u inson uchun hayotning qizig'i qolmaydi.

Har qanday kasb mehnatsevarlik, mas'uliyat, odob-axloq kabi aniqlovchi fazilatlarini talab qiladi

va har qanday kasbda eng muhimi, o'z ishiga bo'lgan samimiy muhabbatdir. Ushbu kasbni tanlagan kishi uni chinakamiga hurmat qilishi, shuningdek, bu kasb to'la fidoyilik talab qilishini tushunishi kerak va qurilish kunlik mashaqqatli ish ekanligini unutmaslik kerak.

Ha, avvaliga bu menga qiyin bo'ladi va kareramni boshidan boshlashim kerak bo'ladi, ammo keyin amaliy va nazariy bilim va qat'iyat menga munosib ish haqi bilan ish beradi. Qurilish har doim yuqori maoshli sanoat bo'lib kelgan va shahrimizdagi ko'plab yangi texnologik va qiziqarli tijorat va davlat qurilish loyihalarini hisobga olgan holda, men ishsiz va maoshsiz qolmasligim aniq. Ushbu kasb sizga binolar va boshqa inshootlarni qurish va ulardan foydalanishda ishlatiladigan eng zamonaviy texnologik va murakkab uskunalarni tanishishga imkon beradi.

Mening kelajakdagi mutaxassisligimning yana bir katta afzalligi - bu martaba o'sishi. Masalan, qurilish kompaniyasining oddiy ishchisidan boshlig'igacha "o'sishingiz" mumkin. Ammo, albatta, salbiy tomonlari ham bor. Bu, avvalambor, ularning faoliyati va harakatlari uchun yuqori mas'uliyatdir, chunki odamlarning hayoti va sog'lig'i ularga bog'liqdir. Ikki yildan buyon ushbu ixtisosni o'rganayotganim sababli, ishonch bilan aytmogchimanki, bu kasbning kamchiliklaridan ko'ra afzalliklari ko'proq.

Kasbim bu - mening faxrim.

ZO'RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan so'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shulardan eng asosiysi sifatida mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash maqsadida 2019-yil 2-sentyabr kuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinganligini aytib o'tishimiz mumkin.

Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor lavozimlarining joriy etilganligi esa o'z jins vakilasi hisoblanmish xotin-qizlarni zo'rvonlik va tazyiqdan himoya qilish maqsadida tashlangan eng dadil qadamlardan biridir.

Bugun ayollarimiz o'rtasida urf bo'layotgan salbiy holatlardan yana biri bu oila-turmush doirasidagi muammo va kelishmovchiliklarni o'zboshimchalik bilan hal etishga urinishlaridir.

Joriy yilning o'zida Romitan tumanida bir guruh xotin-qizlar tomonidan bir ayolni urib tan jarohati yetkazishganligi hamda bu jarayonni videotasvirga olib ijtimoiy tarmoqqa joylashtirishganligi bunga misoldir. Albatta ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar va keng jamoatchilikning nafaqatini keltirib chiqargan bu holatlar yuzasidan jinoyat ishlari qo'zg'atilib, tergov va sud harakatlari olib borilmoqda.

Aziz ahollar, siz To'maris, Nodirabegim, Uvaysiyalar avlodisiz. Ayrim xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan bu kabi jirkanch illatlar nafaqat mentalitetimizga, shu bilan birgalikda qonunlarimizga ham mutlaqo ziddir.

Shuningdek, "Muqaddam sudlangan", "Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagan" degan iboralarni jamiyatimiz a'zosi bo'lgan xotin-qizlarning shaxsiga tirkalishiga yo'l qo'ymaylik. Buning uchun ayollarimizdan sabr-qanoat, vafo va sadoqat, erkaklarimizdan esa mehr-muruvvatli bo'lish talab etiladi xolos.

Zamira SANOEVA,
Romitan tumani 26-umumta'lim maktabi psixologi



KELAJAGI YORQIN RASSOM QIZ

U Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida tug'ilgan. Yoshi o'n to'qqizda. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Kompyuter garfikasi va badiiy foto yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Diyora Tilavova (Siz rasmda ko'rib turgan qiz) 2015-yilda "Kamalak" bolalar tashkilotida ilk faoliyatini boshlagan va 2018-yildan buyon O'zbekiston Yoshlar ittifoqida sardorlik lavozimida o'z tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatini namoyon etib kelmoqda.

Asosiysi, mana, sakkiz yildan buyon u tasviriy san'at yo'nalishida ijod qilib, qator yutuqlarga erishib kelmoqda.

Hozirgi kunga qadar O'zbekiston, Rossiya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Qozog'iston, Hindiston kabi davlatlarda bo'lib o'tgan tanlovlar, festivallar, bienallielar g'olibasi. Shu bilan birgalikda Fransiya, Rossiya bilan Amerika hamkorligidagi medal sovrindori. Qozog'iston Respublikasi "Ибраим Альтинсарын" nomidagi oltin medal va Qozog'iston hamda O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Xalqlar do'stligi" medal sohibasi.

TADBIRKORNING "O'YIN"lariga NUQTA QO'YILDI

Har bir ishda halollik bo'lsa, shundagina baraka bo'lishini yoshi ulug'lar e'tirof etishgan. Ko'zbo'yamachilik va harom aralashgan ish esa kun kelib fosh bo'ladi, boz ustiga o'z egasini sharmandalik botqog'iga g'arq etadi.

Farrux Sherqulov (ism-familiyalari shartli ravishda o'zgartirilgan) tadbirkor. Oliy ma'lumotli, uch nafar farzandi bor. Topgan-tutgani qanoatlanmadi yoki yanayam ko'proq pul topib, birdaniga boyib ketmoqchi bo'ldimi, harqalay, niyati buzildi. Tanishi Mirkarim Obidinov bilan jinoiy til biriktirib, boshqa bir MCHJga ajratilgan 1 mlrd so'm kredit mablag'ining 800 mln so'mini go'yoki qurilish material sotib olish uchun o'z hisob raqamiga o'tkazadi. Keyin esa bu pullarni fuqarolar Naima Asadullayeva hamda To'xtamurod Ubaydovlarning plastik kartalariga "ustav fondi hisobidan ko'chirildi", deb tushiradi. Pullarni shahardagi bir necha bankomatlardan naqdashitirgandan so'ng, jinoiy harakatlarning izini supurgida yo'qotgandek yashirish harakatini qiladi.

Oldi-sotdi shartnomasiga asosan amalda mahsulot yetkazib berilishi kerak edi. Bu haqdagi rasmiy hujjat - hisob fakturaga soxta ma'lumotlar kiritilib, Xalq bankiga taqdim etishadi.

Farrux bu bilan cheklanib qolgan yo'q. U ko'p miqdordagi soliq vama'juriy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlab, davlatga jami 174 mln. 46 ming 800 so'mlik zarar keltirgan. Bundan tashqari, u kirim xujjatlari mavjud bo'lmagan tovarlar savdosi bilan shug'ullangan hamda pul ko'chirish yo'li bilan olingan mahsulotlarni naqd pulda sotib, savdodan tushgan 272 mln. so'm naqd pul mablag'larini nazorat kassa mashinasidan o'tkazmasdan va bank muassasasiga topshirmasdan ularni o'z bilganicha tasarruf etgan. Bu orqali esa savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini juda ko'p miqdordagi qiymatda buzgan. Eng ajablanarli jihati shundaki, bu jinoiy harakatlarni qo'llab-quvvatlagan va yo'l-yo'riq ko'rsatgan Mirkarim Obidinov tumandagi banklardan birining rahbari lavozimida faoliyat ko'rsatib kelgan.

Jinoyatga jazo muqarrar. Sud Farrux Sherqulovga bir yilu olti oy muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinladi. Uning jinoiy sherigi esa tegishli tartibda mahkamaga tortildi.

Muhammad XUSEINOV,
Bosh prokuratura xuzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Hujjatli tekshirishlar bo'limi katta taftishchisi

NIHOLNI ROSTLAYMAN, DEB SINDIRIB QO'YMANG!

Zamon o'zgaryapti. O'zining yoshligim, o'quvchilik davrim bilan hozirgi kecha-kunduzni solishtirib, katta farq borligini sezaman. Bilim olish uchun yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlarda ham, o'quv qurollari-yu darsliklar, o'quvchilar o'tirib ta'lim olayotgan sinf xonalarida ham tafovut katta.

Xullas bugungi kun yoshlari uchun hamma narsa muhayyo. Ko'pincha yoshlarni uquvsizlikda, hafsalasizlikda ayblaymiz. Bularni eshitib beixtiyor o'yg'a toladi kishi. Biz farzandlarimiz qalbiga yo'l topa olayapmizmi? Kezi kelganda bizni taraddudlantirib qo'yayotgan muammolar ildizi qaerda? Shu savollarga javob topishni istayman.

O'zining uzoq yillik ish tajribam va kuzatishlarim natijasiga tayanib ayta olamanki, ko'p narsa munosabatga, muomalaga bog'liq.

Mening anglaganim, biz ko'pincha o'g'il-qizlarimizga bir bola, go'dak sifatida qaraymiz. Bu xato. Biz o'z dilbandlarimizga, avvalo, eng yaqin do'st, sirdosh dugona, maslahatgo'y va maslakdosh o'rtoq bo'lishni uddalashimiz kerak. Aks holda ularning qalbiga yo'l topa olmaymiz. Natijada o'zimizni ham, ularni ham qiynab qo'yamiz. Biz qanchalik ularni tushunishga harakat qilib, o'zimizga yaqin olib muomalada bo'lsak, bu biz va farzandlarimiz uchun foydali bo'ladi, deb o'ylayman. O'ylamay aytilgan noo'rin bir jumla so'z endigina hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan farzandimiz qalbiga jarohat etkazishi mumkin. Shuning uchun ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanayotgan har bir ustoz, o'qituvchi, murabbiy o'z shogirdiga eng yaqin do'sti sifatida munosabatda bo'lishi zarur. Biz shogirdlarimizning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib borishimiz va ularning kichkinagina yutug'ini ham rag'batlantirishimiz kerak.

Yosh qalblar himoyaga, mehrga hamda rag'batga muhtoj bo'ladi. Agar biz davomchilarimiz bo'lgan yoshlarni ular erishgan yutuqlar uchun tengqurlari oldida namuna qilib ko'rsatsak, qanchalar maqsadga yaqin borgan bo'lar edik. Bu harakatimiz bilan ozgina yaxshi natijasidan quvonchi ichiga sig'mayotgan bolamizni yanada mehnat qilishga, izlanishga, o'z ustida ishlashga undagan bo'lamiz.

Ularga o'z hayotiy tajribamizdan foydalanib, hayotiy misollar asosida nima yaxshi-yu, nima yomon, nimalarga e'tiborli bo'lishlari kerak, qanday yo'l tutsa odam baxtga erisha oladi, shular haqida har kuni tushunchalar berib borishimiz lozim. Yaxshi muomala, shirin so'z bolani ustoziga bo'lgan mehrini oshirib, uni ustoziga yaqinlashtiradi. Bola o'z ustozini ishonchini oqlashga harakat qila boshlaydi. Biroz sho'x, qaysar va jizzaki, fe'l-atvori murakkab bo'lgan bolalar ham yaxshi muomala sabab yaxshi tomonga o'zgaradi. Ko'ngli qattiq odamni ham mehr bilan qilingan muomala yumshatadi. Xatolari to'g'ri so'z bilan tushuntirilsa, o'quvchi qilgan ishidan uyaladi, xijolat bo'ladi. Bolani ko'pchilik oldida izza qilish esa yomon oqibatlarini keltirib chiqaradi. Yaxshilik ham, yomon munosabat ham bir umrga inson qalbidan muhrlanib qoladi. O'z kuchiga ishonmaydigan, jur'atsiz, hafsalasiz bolalarimiz biz kattalarning o'ylamay qilgan bir harakatimiz, qo'pol munosabatimiz tufayli shu holga tushib qolganliklarini hammamiz ham anglayvermaymiz. Buni anglash uchun, bu kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun shogirdimizga yaqin bo'lishimiz, bola qalbiga quloq tutishimiz va ehtiyot bo'lib muomalada bo'lishimiz kerak.

Biz o'zimizning chin insoniyatimiz, yaxshi muomalamiz bilan farzandlarimiz qalbiga quvvat, orzulariga qanot bo'lishimiz darkor.

"Nima eksang - shuni o'rsan", degan naql bejizga aytilmagan. Xulosani o'zingiz qiling.

Mastura JUMAEVA,
Jondor tumanidagi 10-umumta'lim maktabining
amaliyotchi psixologi

Jamoliddin O'rinov (ism-familiyalar o'zgartirilgan) ham bir firma rahbari. U mo'may daromadga osongina erishish orzusunda "haromdan hazar qilish kerak", degan ezgu fikrga qo'l siltab, nafs tulporiga qamchi bosdi. Viloyatdagi nufuzli tashkilotlardan birida mas'ul vazifada ishlayotgan Solohiddin Odilov bilan til birlashtirib, Jondor tumanidagi bir maktab binosining deraza romlarini ta'mirlash, ularni yangilariga almashtirish, suv tarnovlarini almashtirish vazifasini zimmasiga oladi.

NAFSIGA O'T TUSHDI

Bu yerda ishlar o'lda-jo'lda bajarilib, hujjatlarda bajarilgan ish ko'lami bo'rttirib ko'rsatilgan. Shunday qilib u pul mablag'larini o'zlashtirish orqali talon-taroj qilgan.

Bundan tashqari bu "tadbirkor" bir necha fuqaroni ishontirib, ular nomiga hujjatlarni rasmiylashtirgan holda go'yoki maishiy texnika xaridi uchun deb bankdan keredit olib, bu mablag'larni o'z ehtiyoji uchun sarflab borgan. Belgilangan muddatlarda kredit foizlari to'lanmagach, bank haligi mijozlarni bezovta qila boshlaydi. Nihoyat bu fuqarolar firib yeganliklarini anglab yetadilar va huquq tartibot idoralariga murojaat qiladilar...

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga asosan, o'tash uchun har oylik ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish sharti bilan 2 (ikki) yil 6 (olti) oy muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

G'ayratjon URUNBOYEV,
Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi
kurashish departamenti
Hujjatli tekshirishlar bo'limi bosh taftishchisi

ENG NAMUNALI BOSHLANG'ICH TASHKILOTLAR BELLASHDI

Kogon shahridagi 9-maktabda "Eng namunali boshlang'ich tashkilot" ko'rik-tanlovining shahar bosqichi o'tkazildi.

Unda kasaba uyushma a'zolari 100 nafardan ortiq bo'lgan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlaridan 4 ta, kasaba uyushma uyushma a'zolari 100 nafardan kam bulgan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlaridan 17 tasining hujjatlari taqdim etildi. Tanlovda ishtirok etgan barcha tashkilotlar tomonidan kasaba uyushmasi faoliyatiga oid ko'rgazmalar tashkil etilib, prizentasiyalar namoyish qilindi.

Barcha tashkilotlarning hujjatlari komissiya tomonidan o'rganib chiqildi va munosib baholandi. Yuz nafardan ortiq kasaba uyushma uyushma a'zolari bo'lgan boshlang'ich tashkilotlar orasida shahar 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti, 100 nafardan kam kasaba uyushma a'zolari bo'lgan boshlang'ich tashkilotlar orasida esa 4- umumiy o'rta ta'lim maktabi kasaba uyushma tashkiloti shahar bosqichi g'olibi deb topildi va keyingi bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Tanlov ishtirokchilari o'zaro tajriba almashdilar, ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Tadbir ko'tarinki ruhda o'tdi. G'oliblar esdalik sovg'alari va diplomlar bilan taqdirlandi.

S.AMONOVA,
Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Kogon shahar
bo'linmasi Kengashi raisi

SIZ BU KASBLAR HAQIDA BILASIZMI?

1. KOMPYUTER DASTURCHISI

Dasturchilar an'anaviy ravishda uchta toifaga bo'linishi mumkin:

Dastur dasturchilari - asosan amaliy xarakterdagi dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi - o'yinlar, buxgalteriya dasturlari, muharrirlar, tezkor xabarchilar va boshqalar. Ularning faoliyati sohasiga video va audio kuzatuv tizimlari, ACS, yong'in o'chirish yoki yong'indan signalizatsiya tizimlari va boshqalar uchun dasturiy ta'minotni yaratish kiradi.

Tizim dasturchilari - operatsion tizimlarni rivojlantiradi, tarmoqlar bilan ishlaydi, turli tarqatilgan ma'lumotlar bazalariga interfeyslar yozadi. Ushbu toifadagi mutaxassislar eng noyob va eng ko'p maosh oladiganlar qatoriga kiradi. Ularning vazifasi o'z navbatida hisoblash tizimini boshqaradigan dasturiy ta'minot tizimlarini (xizmatlarini) ishlab chiqish (protessor, aloqa va atrof-muhitni o'z ichiga oladi).

Veb-dasturchilar - tarmoqlar bilan ham ishlaydi, lekin aksariyat hollarda global Internet bilan. Ular saytlarning dasturiy ta'minot qismini yozadilar, dinamik veb-sahifalar, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun veb-interfeyslarni yaratadilar.

2. TURIZM MENEJERI

Hozirgi vaqtda bu dam olish va ko'ngil ochish sohasidagi eng zarur kasblardan biri. Kasb chet tillari, geografiya va ijtimoiy fanlarga qiziquvchi oquvchilar uchun mos.

Turizm menejeri - bu ko'p funktsiyali kasb



uchun umumiy nom. Turistik sayohatni boshidan oxirigacha yakka tartibda tashkil etadigan universal mutaxassislar mavjud, ammo aksariyat turistik agentliklarda (turoperatorlarda) ixtisoslik bo'yicha mehnat taqsimoti amal qiladi: mijozlarga xizmat ko'rsatish menejeri, chiptalarni bron qilish bo'yicha menejer va hokazo.

3. IQTISODCHI

Iqtisodchi - iqtisodiyot sohasidagi mutaxassis, iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis. Iqtisodchilar ham olimlar (ya'ni iqtisodiy fan sohasidagi mutaxassislar), ham korxonaning iqtisodiy faoliyatini tadqiq etish, rejalashtirish va boshqarish sohasida ishlaydigan amaliyotchilardir. Ushbu kasb matematika va iqtisodga qiziquvchi o'quvchilar uchun mos va qulay.

Iqtisodchi korxonadagi eng muhim mutaxassislardan biridir. Iqtisodchining vazifasi eng kam yo'qotishlarga ega bo'lgan foydani ko'paytirish uchun ustuvorlik va maqsadlarni to'g'ri belgilashdan iborat.

4. GRAFIK DIZAYNERLIK

Grafik dizayner - atrof-muhitni grafik vositalari bilan bezash bilan shugullanadi. Bu kasb chizmachilik, rassomchilik va informatika faniga qiziqqan oquvchilar uchun tog'ri keladi. Grafik dizaynerlar, albatta, dizayn bilan shug'ullanadi, ammo to'qimachilik dizayni, va me'moriy dizayn ularning vazifalariga kirmaydi. Ularning faoliyat sohasi- kitoblar, gazetalar va jurnallar sahifalari, veb-saytlar va reklama, interaktiv kompyuter dasturlaridir.

Bu kasb egalari, shriftlarni, jurnal sahifalarining tartibini, reklama modullarini ishlab chiqadi, rasmlarni, kollajlarni qiladi, vitrinalarni ishlab chiqadi. Tabiiyki, dizaynerning kompyuter savodxonligi darajasi o'rtacha foydalanuvchi darajasidan ancha yuqori bolishi kerak.

5. KOPIRAYTERLIK

Kopirayter - bu haqiqiy yozuv bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan Internet-yozuvchidir. U o'quvchilar va Internetga tashrif buyuruvchilar tomonidan talab qilinadigan veb-saytlar uchun maqolalar yaratadi. Har bir matnda u aniq biriga javob beradi, muammoni hal qilishga yordam beradi, yangi ma'lumotlarni kiritadi. Kasb rus tili va adabiyotiga qiziquvchi o'quvchilar uchun mos keladi.

Muhriddin RAJABOV,
Romitan tuman 11- umumta'lim
maktabi psixologi

VATAN

Olam ichra yagonasan,
Mening uchun durdonasan.
Sen qalbinga otash yoqqan,
Aziz Kabam, yakdonasan.

TOBE QILMAGIN

Tangri senga topinay abad,
O'zga ishqqa tobe qilmagin.
Hidoyatga boshla qalbingni,
Shaytonlarga mute qilmagin.

Elif KARIMOVA,
Jondor tuman 3-maktab
5-"b" sinf o'quvchisi

BALIQ

Daryo, dengiz, ko'llarda
Mazza qilib suzaman.
Charchash nima bilmasdan
Men dunyoni kezaman.

GUL

Tarovatim har yonga
Yetganicha sochaman.
Hammani lol qoldirib,
O'z chiroyim ochaman.

QUYONCHAM

Oppoqqina quyuncham,
Qo'rquv nima bilmaysan.
Yovuzlar ham bor desam,
Nega quloq solmaysan?
Quyuncham, quyuncham,
Maza qilib o'ynaver.
Keng dalalar qo'ynida,
Orom olib yuraver.

MAYMUN

Shoxdan shoxga sakrayman,
Yuguraman-yelaman.
Bananlarni adashmay
Dona-dona sanayman.

Og'abek HAYOTOV,
Jondor tuman 3-maktab
5-sinf o'quvchisi

BO'RI

Bo'ri yashar o'rmonda,
Yirtqichlik bor qonida.
Uvillashi bir xunuk,
Izlar o'lja-yu tuynuk.

TIPRATIKAN

Tipratikan, tikanjon,
Tikanlari nayzajon.
Dumalaysan har tomon,
Ildamlaysan xavf tomon.

KONSTITUTSIYA

Sen erursan baxtimiz,
Qomusimiz – faxrimiz.
Bizga qalqon hamisha
Shonimiz, g'ururimiz.

Boshlaysan kelajakka,
Yetkarursan tilakka.
Baxtiyorlik tuyg'usin
Bag'ishlaysan yurakka.

Sen tugalsan – el tugal,
Bundan ortiq ne kerak?
Ozod yurtda xalq baxtli,
Sen-la ulg'ayar millat.

Shabnam MUHAMMADOVA,
Jondor tuman 3-maktab
5-"b" sinf o'quvchisi

ONAM

Onam jannatim bo'lsa,
Otam aziz davlatim.
Ikkisi ham qalbingda
Olov yoqqan gavharim.

Mohiniso JAFAROVA,
Jondor tuman 3-maktab 5-
sinf o'quvchisi

TULPOR

Sen uchqursan tulporim,
Jahonlarni kezasan.
Senga yetolmas hech kim,
Go'yo yeldek uhasan.
Uch, uchaver, tulporim,
Qir, adirda ko'ngling och
Ko'ngillarni yayratib,
Dilimizga quvonch sol.

Behzod BAHRONOV,
Jondor tuman 3-maktab
5- sinf o'quvchisi

DUSHMAN

Ba'zida insonni alam yig'lalar,
Beozor dilini g'anim yig'lalar.
Ollohni qahridan sira ham
qo'rqmay,
Nobakor kuygandan
tuhmatlar otar.

Xadicha BOBONAZAROVA,
Jondor tuman 3-maktab
4-"b" sinf o'quvchisi

ONAJONIM

Onajonim, yagonasiz,
Boshimdagi parvonasiz.
She'riyatim gulshanida,
Jannat yuzli durdonasiz.

BAHOR

Bahor kelsa bog'imga
Ochiladi boychechak.
Xursand bo'lib gullardan,
Sochga taqaman chechak.

Matlabbonu BAFOYEVA,
Jondor tuman 3-maktab
4-"b" sinf o'quvchisi

BOSHIGA RO'MOLLAR
YARASHGAN ONAM

Oloh bergan uzoq
umrni ko'ring,
Bolam deb jonini talashgan
onam.
Dunyo turgunicha yonimda
turing,
Boshiga ro'mollar yarashgan
onam.
Bahor oftobiday chehrangiz
kulsin,
Doimo tabassum hamrohingiz
bo'lsin.
Kirgan bog'ingiz gullarga to'lsin,
Sizni juda yaxshi ko'raman
onam.

Lola SOLIYEVA,
Jondor tuman 3-maktab
4-"b" sinf o'quvchisi

YOMG'IR

Hislarim...
Jo'sh urar yomg'ir ostida,
Duolar ijobat gar buni bilsang.
Soyabon shart emas men devonaga,
Olamni kezamiz, yur, hamroh bo'lsang.

Ikkimiz kezaylik kurrai zamin,
Sochlarimga qo'ngil, ey tiniq yomg'ir.
Durdek donalaring kiprigim o'psin,
Maysalar shivirin tinglaylik bir bir.

So'qmoqlar oralab, loylarga botib,
Unutib ketamiz anduhkash vaqtni.
Bag'lardan tog'larga, qirlarga o'tib
Menga in'om etgin eng oliy baxtni.

Tuyg'ular oroli juda keng olis,
Zarralaring sachrab, porlab ketadi.
Vulqondek uyg'onib bahoriy hislar
Ilhomim nazmga chorlab ketadi.

Mayli sarob bo'lsin, maylida ro'yo,
Tushumda sayrlar uyushtiraman.
Yomg'irni quchgancha bir o'zim tanho
Qalbingni baxt ila qovushtiraman.

BAHOR FALSAFASI

Ortimdan ergashar soyasiz bir ruh,
Bahor-ku ruhlarga kelar teskari.
Mening ruhim bo'lsin, sabo nurlari
Qishning sumalakdan bo'lgan askari.

Bahor gullarining arilari ham
Bu tanim chaqishdan bir zum tinmaydi.
Jigarrang shoxlarga yopishgan shira
Yerga tushsa hamki o'g'it bo'lmaydi.

Bahorni chorlaydi Hamid, Zulfiya
Sadoqat saroyin mangu juftligi.
Mening telba ruhim chulg'atib shu on
Gullaydi... bahorning so'ngi habibi.

Bahor-ku - fasllar shoh erkatoyi,
Uch oy ham silaydi sochini mayin.
Yerga yopishgancha barra maysalar
Yolvorib bahorga kuylaydi kuyin.



Dostonbek ABDURAXMONOV,
Jizzax viloyati Zomin tumani, Dashtobod shahri

ZOMIN SEMINARINING HUDUDIY
BOSQICHI

Yosh ijodkorlarning Zomin seminari iste'dodli yoshlarni kashf etish va yuzaga chiqarishda ulkan maktab vazifasini o'tab kelayotir. Bu maktabning boshlanishida saboq olgan yoshlar orasidan yetishib chiqqan ko'plab iste'dodli shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar bugun adabiyotimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shishmoqda.

25-may kuni Buxoro shahridagi Yoshlar markazida Buxoro va Navoiy viloyatlarining yosh iste'dodlari ishtirokida saralash jaryonlari bo'lib o'tdi. Seminarda ishtirokchilarning ijodiy mashqlarini uyushma a'zolari Shoyim Bo'tayev, Vafo Fayzullo, Bobur Bobomurod, Muhiddin Abdusamat, Bahridin Sadridinov, Shodmon Sulaymon kabi ijodkorlar hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi rahbari M.Pardayevlar ko'rib chiqishdi. Tadbir so'ngida yosh ijodkorlarga badiiy kitoblarni ulashildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi matbuot xizmati



«EZGULIK»

Muassis:
«Ma'naviyat
sarchashmasi»
MCHJ

MUHARRIR:
Obid QO'LDOSH

Gazeta
«EZGULIK»
tahririyati kompyuter
markazida sahifalandi.

Navbatchi muharrir:
Hamzabek
TURDIYEV

Musahhih:
Nafosat TOTLIYEVA

Sahifalovchi:
Mubina
TOYIROVA

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar muallifga
qaytarilmaydi. Mualliflar
fikri tahririyat nuqtai
nazaridan farqlanishi
mumkin.

Gazetada internet
materiallaridan foydalanildi.

Tahririyat manzili:
Buxoro shahri, A.Temur ko'chasi, 25-uy.
Telefon: (99)700-25-04

Elektron gazeta 2023 yil 23 yanvarda
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №41930465 raqam
bilan ro'yxatdan o'tgan.